

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**ADABIYOT FANIDAN
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(5 -sinf)**

Toshkent - 2014

Uqtirish xati

1. Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo'libgina qolmay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan boshqa fanlar singari, o'quvchilarga birinchi navbatda bilim berishi, ya'ni ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo'nalishi – yetakchi yozuvchilar va ular ijodi bilan, shu yozuvchilar ijodida o'z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan sifatidagi o'ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi lozim. Aniqroq aytganda, umumta'lim maktabini bitirib chiqqan o'quvchi o'zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi davriga qadar bosib o'tgan yo'li haqida, atoqli yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida muayyan bilimga ega bo'lishi lozim.

2. O'zbek adabiyoti qo'riq va bo'z yerda paydo bo'lgan emas. Yozma adabiyotdan bir necha asr avval xalq og'zaki ijodi yaratila boshlangan va bu og'zaki ijod hozirga qadar yashashda davom etib keladi. Yozma adabiyotning maydonga kelishida muhim manba bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodi dunyodagi eng boy og'zaki ijodlardan biri bo'lib, ko'plab doston, afsona, rivoyat, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq singari asarlarni oladiki, ularda, bir tomondan, xalq tarixi, maishiy madaniyati, urf-odatlar va h.k.lar o'z aksini topgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu asarlar xalqni, ayniqsa, yosh avlodni milliy an'analar ruhida, shuningdek, vatanparvarlik, erklarparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalab kelgan. Shuning uchun ham yozma adabiyot bilan birga, umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga o'zbek xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalari haqida ham bilim berish maqsadga muvofiq.

3. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismidir. O'zbek adabiyoti boshqa adabiyotlar singari, milliy zaminda tug'ilgan va shu zaminda rivojlanib keladi. O'zbekiston jahon hamdo'stligining to'laqonli a'zosi bo'lgan hozirgi kunda faqat o'zbek adabiyotini o'rganish o'quvchilar uchun yetarli emas. Jahon adabiyotining turli adabiy-tarixiy davrlarda yaratilgan eng yaxshi asarlari va shu asarlarning mualliflari haqida bilimga ega bo'lish, bir tomondan, o'quvchilarga o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligini tushunish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularning adabiyot haqidagi bilimlarini boyitadi.

4. Adabiyot ijtimoiy fan tarmog'i sifatida shu kecha-kunduzda tug'ilib va shakllanib kelayotgan avlodlarni milliy g'oya asosida tarbiyalash ishiga xizmat qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid (masalan, diniy va milliy totuvlikka raxna soluvchi), milliy g'oyaga zid (masalan, panturkizm, shovinizm, ksenofoniyani targ'ib qiluvchi), milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash tamoyiliga mos kelmaydigan (masalan, nihilizm, g'oyasizlik, tushkunlikka moyillik, kosmopolitizm ruhidagi) asarlar darslikdan joy olmasligi kerak. Ayni paytda dasturda, ayniqsa, dastur asosida yoziladigan darslik va uslubiy qo'llanmalarda shunday asarlarga nisbatan o'quvchilarda immunitent hosil qila biladigan tushuncha va tasavvurlar berish ayni muddaodir.

5. 5-sinf uchun yaratilgan amaldagi dasturda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot va jahon adabiyoti materiallari muayyan mavzu (rukn) lar bo'yicha berilgan bo'lsa, 8,9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar adabiyotni tizimli o'rganish maqsadiga bo'ysundirilgan edi. Dasturning qayta ishlangan hozirgi nusxasida ana shu ilmiy-pedagogik tamoyilni saqlab qolish maqsadga muvofiq deb topildi.

6. Odatda adabiyot fani bo'yicha tuzilgan dasturlarda, mumtoz va zamonaviy adabiyot tarixida katta mavqega ega bo'lgan, tarix g'alviridan o'tgan, milliy adabiyot taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan yozuvchilar va ularning sara asarlari o'quvchilarga o'rganish uchun tavsiya etib kelinadi. Aksar Sharq va g'arb mamlakatlarida qabul qilingan ushbu tamoyil,

afsuski, dasturning oldingi nusxasida e'tiborga olinmadi. Mazkur dasturda hozirgi o'zbek adabiyotida katta mavqega ega bo'lmagan yozuvchilar va ularning asarlari ham o'quvchilarga tavsiya etildi.

7. Zamonaviy o'zbek adabiyotining bir qator namoyandalari o'zlari tug'ilib o'sgan viloyatlarda ijod qilib keladilar. Ular orasida badiiy yetuk, milliy g'oyaga xizmat qiluvchi asarlarni yaratayotgan yozuvchilar ham oz emas. Shunday yozuvchilarning sara asarlari dasturdan o'rin olishga haqli va munosibdir.

5 sinf (102 soat)

Adabiyot - so'z san'ati (1 soat).

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati. Badiiy so'z qudrati. So'zning ifoda imkoniyatlari. So'z orqali inson ruhiy olami, his-tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi. Adabiyot va ma'rifat, adabiyot va ma'naviyat, adabiyot va tarbiya. Badiiy adabiyotning turlari. Mumtoz hamda zamonaviy shoir va yozuvchilarning asarlari misolida adabiyotning so'z san'ati ekanligini namoyish etish.

HIKMAT DURDONALARI

Maqollar (1 soat).

Maqollar xalq og'zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymog'ining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta'sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma'lumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do'stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.

Xalq og'zaki ijodi tushunchasi.

Topishmoqlar (1 soat).

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri sifatida. Topishmoqlarda inson va uni o'rab olgan olamning o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanganligi. Topishmoqlarining shakliy tuzilishi. Topishmoqlarning savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun asarni tashkil etganligi. Topishmoq va maqol.

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar (2 soat).

Imom Buxoriy va uning «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») hadis to'plami haqida ma'lumot. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislarining inson ma'naviyati yuksalishida tutgan o'rni. Axloq-odobga oid hadislarining o'ziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarining ixcham voqeyiy hikoyalar asosida ifodalanishi. Hadislarining millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni.

Komil insonning ma'naviyatini shakllantirishda hadislarining o'rni. Hadislarda bildirilgan fikrlar va o'quvchi tabiatidagi sifatlar orasidagi aloqadorlik. Mehribonlik, bag'rikenglik, ma'rifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarining ahamiyati xususida. Hadislar bilan o'zbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli so'zlarining mushtarak jihatlari. Hadis haqida tushuncha.

Ezop. «Yovvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Bo'ri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zag'cha va cho'pon» masallari (2 soat).

Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti to'g'risidagi rivoyatlar. Ezop masallarining

insoniyat ma'naviyati, ma'rifiy tafakkuridagi o'rni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari g'oyalarning ilgari surilgani.

«Yovvoyi echkilar» masalida do'stga sadoqat, «Kiyik bilan tokzor» masalida yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, «Bo'ri bilan laylak» masalida do'st-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa masallarda ham shunga o'xshash hayotiy masalalar ramziy obrazlar orqali talqin etilganligi.

Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roli. Masal haqida tushuncha.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. O'zbek xalq maqollaridan 10 tadan yod olish**
- 2. Topishmoqlarlardan 10 tadan yod olish**
- 3. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislaridan 10 tadan yodlash**
- 4. Ezop masallarini o'qish**

ERTAKLAR OLAMIDA

«Uch og'a-ini botirlar» ertagi (3 soat).

Ertakning xalq og'zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri ekanligi. O'zbek xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlari. «Uch og'a-ini botirlar» ertagining betakror badiiy olami. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo'lganligi. Botirlarga xos ezgu ma'naviy sifatlarning namoyon bo'lishi.

«Susambil» ertagi (3 soat).

Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati. Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli sifatida. Ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlari. Ertak haqida tushuncha.

Hamid Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni (3 soat).

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Uning ertak-dostonlari. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni syujeti va obrazlar tasviridagi o'ziga xoslik. Dostondagi asosiy qahramonlar. Dostonda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviri. Asarning badiiy xususiyatlari. Asar tilining sodda va ravonligi.

Adabiy ertak haqida tushuncha

M.Shayxzoda. «Iskandar Zulqarnayn» dostoni (2 soat).

Shayxzodaning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

XX asr o'zbek shoirilari ijodida she'riy ertak-dostonlar yaratish tajribasi. «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni va uning muallifi haqida ma'lumot. Iskandarning ikki shoxi borligi haqidagi rivoyat va uning dostonidagi o'ziga xos talqini. Iskandar, Sartarosh va Cho'pon obrazlari. Pinhon tutilgan mudhish sir va uning Cho'pon yasagan nay orqali oshkor bo'lishi. Nayning ramziy mohiyati. Dostondagi rivoyatdan chiqadigan muhim saboq - tarixda pinhon tutilgan qabih ishlarning yopiqligicha qolib ketmasligi, baribir qachondir oshkor bo'lishi muqarrar ekanligi.

Jonatan Svift. «Gulliverning sayohatlari» (3 soat).

Adib haqida ma'lumot. Romanning majoziy asar ekanligi. Unda asar qahramonlari tabiatidagi ijtimoiy illatlarning kulgiga olinishi. Asarda tasvirlangan voqealarning xayoliyligi va xarakterlar tasviridagi realizm o'rtasidagi nomutanosiblik.

Asar qahramonlari xarakteridagi illatlarga munosabati va ularning muallif zamondoshlariga daxldor jihatlari.

Hans Xristian Andersen. «Bulbul» ertagi (3 soat).

Ertakchi-yozuvchi haqida ma'lumot.

«Bulbul» ertagida ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashning ifodalanishi. Ertakdagi qahramonlar obrazi va ular o'rtasidagi munosabatlar tasviri. Ertakda ezgulik va go'zallikning buyuk yaratuvchi kuch sifatida ulug'lanishi. Ertakning badiiy o'ziga xosligi, uning qiziqarliligini ta'minlagan omillar.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi
2. «Susambil» ertagi
3. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni
4. Asqad Muxtor. «Adolat» ertagi
5. M.Shayxzodaning «Iskandar Zulqarnayn» dostoni
6. Jonatan Svift. «Gulliverning sayohatlari»
7. Hans Xristian Andersen. «Bulbul» ertagi

BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI

Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi (2 soat).

«Uloqda» hikoyasining XX asr boshlaridagi o'zbek xalqi hayotidan olinganligi. Hikoyaning g'oyaviy mazmuni. Hikoyadagi obrazlar. Asar voqealari tasvirining hikoyachi bola tilidan, uning dunyoqarashi orqali berilishi. Tasvirda badiiy joziba va samimiylikka erishilganligi. Asarda adib yashagan tarixiy muhit tasviri. Hikoyada o'zbek bolalariga xos jihatlarning aks ettirilganligi.

Oybek. «Fonarchi ota», «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyalari (3 soat).

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Fonarchi ota» hikoyasida otaning olijanob insoniy fazilatlarini va sho'x bolalar sajiyasining haqqoniy ifodalanganligi. Bolalarning fonarchi otaga bo'lgan munosabatlarining o'zgarib borishi va bu holning yozuvchi tomonidan katta maxorat bilan ifodalanganligi.

«Bolalik xotiralarim» qissasida adibning bolalik va o'smirlik davrining ifodalanishi. Qissadan olingan parchada o'tgan asr boshlarida yashagan bola va bobo obrazlarining haqqoniy tasviri.

Hikoyalarning estetik-tarbiyaviy ahamiyati.

Mirkarim Osim. «Zulmat ichra nur» qissasidan parcha. «Yoshlik ayyomining ilk bahori» ... (3 soat).

M. Osim tarixiy qissalar muallifi sifatida. Yozuvchi ijodida Navoiy mavzusining yetakchilik qilishi.

«Zulmat ichra nur» qissasidagi «Yoshlik ayyomining ilk bahori» «Yazd cho'li» deb nomlangan lavhalarda Alisherning bolalik chog'lariga oid ibratli voqealarning tasvir etilgani.

Undagi kitobga bo'lgan muhabbat, xayolot olamining kengligi, muhofazasining teranligi. Mazkur hikoyalarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati. Qissaning o'quvchilar tomonidan to'liq o'qilishiga erishish.

G'afur G'ulom. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi (3 soat).

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida Birinchi jahon urushi davridagi xalq hayotining aks ettirilishi. Hikoyada bola, kampir, o'g'ri obrazlarining haqqoniy tasvirlanganligi. Kampir bilan o'g'ri o'rtasidagi suhbat; suhbatdagi tabiiylik va samimiylikning namoyon bo'lishi. Hikoyadagi obrazlarda o'zbek milliy ruhining tiniq aks etganligi

Usmon Nosir. «Yur, tog'larga chiqaylik», «Yo'lchi», «Bolaligimga», «Yoshlik», «Yurganmisiz birga oy bilan», «Gulzor – chaman...» she'rlari (2 soat).

Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Shoir she'rlarida bolalarga xos beg'ubor his-tuyg'ularning ifodalanishi. Ushbu she'rlarda bolalar tabiatiga xos xususiyatlarning mahorat bilan tasvir etilganligi. U. Nosir she'rlarining badiiy o'ziga xosligi.

Shoir she'rlarida tabiat go'zalliklari bilan pokiza qalbli inson tuyg'ulari o'rtasidagi hamohanglik. Usmon Nosir she'rlarida odamning go'zallikka munosib bo'lishi ulkan bir istak sifatida ifodalangani

Asqad Muxtor. «She'rlar» (2 soat).

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

A.Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. She'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etish va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. Shoir she'rlaridagi fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'ziga xoslik. She'rlarning badiiy xususiyatlari.

O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari» qissasidan (4 soat).

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Dunyoning ishlari» qissasi muallifning o'z onasi haqidagi xotiralardan iborat ekanligi. Qissadan olingan boblarda Ona, o'g'il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. Qissaning «Alla», «Iltijo» boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hech qachon to'lab bo'lmas qarzning ta'sirchan ifodalanganligi. Onani qo'msash, uni sog'inish, uning hech kim bilan almashtirib bo'lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg'usining ifodalanishi.

«Oq, oydin kechalar», «Tush», «Gilam paypoq» fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muruvvat tuyg'usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Mirtemir. «Bulut», «Shudring», «To'rg'ay», «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari (2 soat).

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Mirtemir she'rlarida ona yurt tabiatidagi tengsiz go'zalliklarning tasvirlanishi. Shoir she'rlarida yurt tabiatiga mahliyolik, undan faxrlanish hissining bo'rtib turishi.

Mirtemir she'rlarida tabiatga mehr-muhabbatning ifoda etilishi. «To'rg'ay» she'rida ana shu cho'l qushiga xos xususiyatlarning yorqin tasvirlanganligi, «Qishlog'im» she'rida o'zbek xalqiga xos ezgu sifatning o'ziga xos yo'sinda aks ettirilishi. She'rlarning badiiy xususiyatlari

va ifoda tarzi.

A.Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» qissasidan (4 soat).

Yozuvchi haqida ma'lumot.

Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi. Unda abadiyat va foniylik, hayot, muhabbat va o'lim muammosining o'ziga xos tarzda tasvir etilishi. Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o'rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiy olamiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi.

O'quvchilar sinfda mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi**
2. **Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasi**
3. **G'afur G'ulom. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi**
4. **Usmon Nosir. «Yur, tog'larga chiqaylik», «Gulzor – chaman...» she'rlari**
5. **O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari» qissasi**
6. **Mirtemir. «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari**
7. **A.Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» qissasi**

MUMTOZ ADABIYOT BO'STONI

Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror» dostonidan (4 soat).

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Hayrat ul-abror» asari buyuk shoirning «Xamsa» asarining birinchi dostoni ekanligi. Dostonda chin va yolg'on so'zning solishtirilishi. To'o'rilikning qanchalar azob bilan bo'lsa-da, g'olib kelishi, yolg'on va egrilikning oxir-oqibat yengilishi Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilgani. «Sher bilan Durroj» asari matnining o'quvchilar tomonidan o'qilishini ta'minlash.

Dostonning o'ninchi maqolotidan olingan hikoyatlarning ramziy ma'nosi. Aslida inson ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlari.

Bobur. Ruboiylar (2 soat).

Boburning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Bobur – ruboiynavis. Shoirning «Har kimki vafo qilsa...», «Kim yor anga ilm tolibi...», «Ko'pdin berikim...», «Tole yo'qi jonimg'a...» ruboiylariga xos xususiyatlar. Ruboiylarda muallif hayoti, shaxsiyati, kechinmalari, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboiylarda shoirga xos samimiyat va rostgo'ylikning aks etishi.

Shoirning «Ko'rdum», «Kishi» radifli ruboiylarida hayot haqiqatining aks etishi. «Ko'ngli tilagan murodig'a...», «Tole yo'qi...» va boshqa ruboiylarida Bobur tarjimai holiga doir unsurlarning yaqqol namoyon bo'lishi.

Muqimiy. «Sayohatnoma» asaridan (3 soat).

Muqimiyning hayot va ijod yo'li haqida ma'lumot. Muqimiy «Sayohatnoma» janrining asoschisi sifatida. «Sayohatnoma»ning o'z davridagi shuhrati va milliy adabiyot rivojidagi o'rni. «Sayohatnoma»da Farg'ona vodiysi aholisiga xos hayot va ruhiyat manzaralarining berilishi. Odamlarga xos illatlarning hajviy yo'sinda ifoda etilganligi. Asarning hajviy yo'nalishi. Obrazlar tasviridagi jonlilik. «Sayohatnoma» tilining jozibas.

«Sayohatnoma»ning «Qo'qondan Isfaraga» qismida shoirning dunyo mohiyati haqidagi kuzatishlarining berilishi. Unda Rafqon, Yakkatut, Isfara singari manzillarda olingan

taassurotlarning go‘zal ifodalanganligi. .

Sa‘diy Sheroziy. «Guliston» asari (3 soat).

Sa‘diy Sheroziy haqida ma‘lumot.

«Guliston» asarining badiiy-ma‘rifiy xususiyatlari. «Guliston» - o‘zbek didaktik adabiyotining yetuk namunasi sifatida.

Sa‘diy hikoyatlarida ta‘lim-tarbiya masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo‘yilishi. Ularda to‘g‘ri so‘z, qanoatli, mehnatkash, halol kishilar taqdirining aks ettirilishi. Dostondagi she‘riy lavhalar va hikoyatlarning hayotiy-didaktik asosi. Dostonning o‘zbek adabiyoti rivojidagi ahamiyati.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror» dostonidan “Tuzlug‘ ta‘rifida” hikoyati
2. Boburning «Har kimki vafo qilsa...», «Kim yor anga ilm tolibi...» ruboiylari
3. Muqimiyning «Sayohatnoma» asari 4 bandi
4. Sa‘diy Sheroziyning «Guliston» asaridan parcha

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Abdulla Avloniy. «Vatanni suymak» («Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan) lavhasi, «Vatan» she‘ri (2 soat).

A. Avloniy hayoti va ijodi to‘g‘risida ma‘lumot.

«Turkiy Guliston»dagi she‘riy va nasriy lavhalarda Avloniyning go‘zal odob-axloqqa, yaxshilikka mayl, yomonlikdan hazar, el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ularining ifoda qilinganligi. «Vatanni suymak» asarida inson tug‘ilib o‘sgan zaminning qadr-qimmatini sodda bir uslubda tushuntirib berganligi. Bu g‘oyaning Vatan haqidagi nasriy lavha pafosi bilan uyg‘unligi. Asarning o‘quvchilar yoshiga mos o‘rinlarini to‘liq o‘qilishiga erishish.

Abdulla Oripov. «O‘zbekiston» she‘ri (2 soat).

A. Oripov hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.

«O‘zbekiston» qasidasida ona yurt o‘tmishining g‘oyat ta‘sirli va millat tarixi bilan uyg‘un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni

ulug‘lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. qasidaning badiiy xususiyatlari.

Erkin Vohidov. «Nido» dostoni (3 soat).

«Nido» dostonida insoniyat boshiga tushgan eng ulug‘ falokat – Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg‘ak o‘smir taqdirida qoldirgan izning aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g‘oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Doston nomining ramziyligi.

Dostonni to‘liq o‘qilishiga erishish.

Nodar Dumbadze. «Hellados» hikoyasi (3 soat).

Gruzin adibi N.Dumbadzening hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. Adibning qator roman, qissa va hikoyalarining o‘zbek tiliga tarjima etilganligi. «Hellados» hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasviri. Asardagi vatanparvarlik tuyg‘usining o‘ziga xos tarzda ifoda etilishi. Yanguli va Jamol obrazlari. Ularning o‘xshash va farqli jihatlari tasviri. Bu obrazlarning xarakter darajasiga ko‘tarilganligi. Yanguli tabiatida jangarilik, olijanoblik hamda vatansevarlik tuyg‘ularining mavjudligi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. Abdulla Avloniyning «Vatan» she'ri**
- 2. Oybekning «Bir o'lkaki» she'ri**
- 3. Abdulla Oripov. «O'zbekiston» she'ri**
- 4. Erkin Vohidov. «Nido» dostonidan parcha**
- 5. Nodar Dumbadze. «Hellados» hikoyasi**


Asarlarni o'rganish uchun - 74 soat.

Yozma ishlar uchun - 24 soat.

Takrorlash uchun - 4 soat.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING DAVLAT TA’LIM STANDARTI
VA O‘QUV DASTURI
ADABIYOT
(6-SINF)



Toshkent-2017

6- SINF
(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma'lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

A2+

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash va ulardan foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

A2+

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

oila, maktabda bo'layotgan tadbirlarda faol ishtirok etish, barcha bilan xushmuomalada bo'lish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan insoniy fazilatlarni anglay olish va boshqalarga yetkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash, orasta kiyinish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan milliy qadriyatlarni tushunish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

A2+

kundalik faoliyatda turli chizmalarni o'qiy olish.

1-mavzu. Kirish. Ma'naviyat xazinasi. (1 soat)

Badiiy adabiyot va yoshlar ma'naviyati. Adabiy asarlarning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rni. Komil inson tarbiyasida kitobning ahamiyati. Axloq-odob bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi mushtaraklik. Adabiyotning odob so'zidan olinganligi. Xalq va mamlakatning ma'naviy-madaniy ravnaqida badiiy adabiyotga muhabbatning muhim ahamiyatga ega ekanligi.

I. BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI

(12 soat, A2+:8 soat)

2-4-mavzu. G‘afur G‘ulom. “Shum bola” qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)

G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Shum bola” qissasida topqir, hozirjavob bola obrazining hajviy talqin etilishi. Hayotiy hodisalarga kulgi nazari bilan qarash, qissada yozuvchining tarjimai holiga doir unsurlarning ifodalanishi va bu holning yozuvchi ijodiy uslubiga xos xususiyat ekanligi. Asar tilidagi xalqchillik, jamiyatning turli tabaqalariga xos jihatlarning mohirona tasvir etilganligi.

5-6-mavzu. Turob To‘la. “Do‘nan” hikoyasi. (“Yetti zog‘ora” qissasidan)

(2 soat, A2+: 3 soat)

Turob To‘laning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot.

Adibning “Yetti zog‘ora” qissasida bolalik xotiralari bilan bog‘liq voqealarning ifodalanganligi. “Do‘nan” hikoyasida hikoyachi bola obrazi. Uning Do‘nan laqabli otga bo‘lgan muhabbati va bu muhabbat tasviri orqali bola ruhiy olamiga xos bokiralik, samimiylik, sadoqat tuyg‘ularining tasvir etilganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati.

7-10-mavzu. X. To‘xtaboev. “Sariq devni minib” romani. (4 soat, A2+: 6 soat).

X.To‘xtaboevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Roman qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg‘unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo‘llarga solib yuborganligi va bu holning ta’sirchan ifodalanishi.

Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo‘nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidadagi o‘rni. Qalpoqcha yordamida “ulg‘aygan” va turli ixtisoslikni “egallagan” Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o‘ziga xosligi.

11-13-mavzu. Janni Rodari. “Hurishni eplolmagan kuchukcha”. (3 soat A2+:4 soat)

O‘tgan asrning eng mashhur adabiy ertakchisi Janni Rodari hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Uning “Rim ertaklari” asari va “Uchtadan oxiri bor ertaklar” turkumi to‘g‘risida. Bir ertakning uch turli tugallanishi jahon ertakchiligi tarixidagi yangilik ekanligi va buning ma’rifiy-didaktik ahamiyati. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagining turli tugallanishlarida kuchukchaning turlicha holati tasviri va buning sabablari.

Ertakning uchinchi tugallanishidagi tabiiylik va kuchukning sevinib ketishi sabablari. Ertakning badiiy jihatlari va undan kelib chiqadigan ijtimoiy ma’no. Ertakning to‘rtinchi va hokazo tugallanishini o‘quvchilarga vazifa qilib berish mumkinligi va uni muhokama qilish.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

G‘afur G‘ulom. “Shum bola” qissasi.

Turob To‘la. “Yetti zog‘ora” qissasi.

X.To‘xtaboev. “Sariq devni minib” romani.

Janni Rodari. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” asari.

II. KECHAGI KUN SABOQLARI

(14 soat, A2+:6 soat)

14-15-mavzu. Muqimiy. “Tanobchilar” asari. (2 soat)

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasida foydaxo'r, imonsiz va yolg'onchi kimsalarning tasvir etilishi. Hajv qahramonlari Sulton Ali va Hakimjon o'rtasidagi munosabatlar tufayli tug'iladigan hajviy kulgining kuchi. Muqimiy asarlarining xalqchilligi, soddaligi va ta'sirchanligi.

Hajviya haqida tushuncha.

16-17-mavzu. Abdulla Qahhor. “Bemor”. (2 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

Hikoyachilikda Abdulla Qahhor badiiy mahoratining namoyon bo'lishi. “Bemor” asarining adib hikoyachiligida tutgan o'rni. Uning badiiy xususiyatlari. Hikoya ohangi. Asardagi Sotiboldi, bemor va qizcha obrazlari.

“Bemor” ilojisizlik, qashshoqlik insonni qanchalar xo'rlashi mumkinligini badiiy ifodalagan asar sifatida. Bemor obrazida mehribon onaga xos xususiyatlarning ta'sirli aks ettirilganligi.

18-19-mavzu. Odil Yoqubov. “Muzqaymoq” hikoyasi. (2 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Muzqaymoq” hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli bola ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik, do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan bolalik davri fojialarining ko'rsatilishi. Bolaning nog'oralar marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam tuyg'ularini biryozlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi.

20-22-mavzu. Erkin Vohidov. “O'zbekim”. (3 soat, A2+:5)

E. Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

“O'zbekim” qasidasi ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixining o'ziga xos poetik ifodasi va badiiy talqini sifatida. She'rda o'zbek millatiga mansublikdan iftixor tuyg'ularining samimiy tasvirlanganligi. Qasidaning milliy o'zlikni anglashdagi, xalq milliy tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati.

23-24-mavzu. O'tkir Hoshimov. “Urushning so'nggi qurboni” hikoyasi.

(2 soat, A2+:3)

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik bolani onadan, og'ani inidan sovutganligining asarda ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Xadicha hamda Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;
o'rganilgan asarlarni ifodali o'qiy oladi;
ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;
badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;
ular asosida kichik insho yoza oladi.

A2+

barmoq, erkin va aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qiy oladi;
asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildiradi.

A2+

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2)

25-26-mavzu. Said Ahmad. "Qoplon", "Sobiq" hikoyalari. (2 soat)

Adibning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Qoplon" hikoyasida laganbardor va manfaatparast kimsa tabiatiga xos illatlarning tasvirlanishi. Qurbonboy va qoplon obrazlarini taqqoslab baholash zarurligi. "Sobiq" hikoyasida ishlab chiqarishni mafkuraga moslashtirgan sho'ro tuzumi tartibotining muayyan shaxs taqdirida namoyon bo'lishi. Hikoyalarning til xususiyatlari, muallif nuqtayi nazarining yashirin ifodalanishi.

27-mavzu. Musa Jalil. "Ishonma" she'ri. (1 soat, A2+: 2)

Musa Jalil hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Shoirning Ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushishi va Maobit qamoqxonasida qatl etilishi. "Maobit daftari" she'rlar turkumining yaratilish tarixi. "Ishonma" she'rining g'oyaviy mazmuni. Asir shoir qalbidagi shubha va gumonlarning she'rda o'z ifodasini topishi. O'z Vatanini sevgan inson iroda kuchining she'rda badiiy mujassamlanganligi.

O'quvchilar sinfdan va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.

Odil Yoqubov. Hikoyalar.

Erkin Vohidov. "O'zbekim" qasidasi.

O'tkir Hoshimov. Hikoyalar.

Said Ahmad. Hikoyalar.

Musa Jalil. She'rlar.

III. SO'ZDA HIKMAT BOR **(10 soat, A2+:9 soat)**

28-mavzu. Xalq qo'shiqlari. (1 soat, A2+: 2 soat)

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida. Ularning turlari. Lirik qo'shiqlarda inson his-tuyg'ularining ifodalanishi. Mavsum qo'shiqlarida xalqimiz e'tiqodiy qarashlarining, shuningdek, bolalarning yil fasllariga bo'lgan munosabatlarining kuylanishi ("Boychechak" va boshqalar).

Nazariy ma'lumot. Xalq qo'shiqlari.

29-31-mavzu. Alisher Navoiy. Hikoyatlar. (3 soat, A2+: 4 soat)

Navoiy hikmatli so'zlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyligi.

"Mahbub ul-qulub" - hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. "Saxovat va himmat bobida", "Hilm zikrida", "Safar manofii zikrida" qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning o'ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati, hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalangani. Ulardagi badiiy tasvir vositalari.

32-33-mavzu. Muhammadsharif Gulxaniy. "Zarbulmasal".(2 soat, A2+: 4 soat)

Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Maymun bilan najjor" hikoyati, undagi majoziy obrazlar talqini. Maymun – uquvsizlik timsoli. Uning tasviridagi yumoristik ohang. Hikoyada tabiat tasvirining o'rni.

"Toshbaqa bilan chayon" hikoyatida ezgulik va yomonlik tasviri. Yomonlik ijtimoiy-ma'naviy illat sifatida. Masalda dialoglarning o'rni. Masalning badiiy xususiyatlari.

34-35-mavzu. Avaz O'tar. "Til", "Fidoyi xalqim", "Sipohi pora istar", "Biling, ushbu zamon g'amnokidurman" she'rlari. (2 soat)

Avaz O'tar hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Avaz O'tar adabiyotdagi yangi mavzu va g'oyalar kuychisi sifatida.

"Til", "Fidoyi xalqim", "Sipohi pora istar", "Biling, ushbu zamon g'amnokidurman" she'rlarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

36-37-mavzu. Abay. Nasihatlar. (2 soat)

Abay hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Abayning odob-axloqqa doir qarashlari. Ijodkorning ta'lim-tarbiyaga, ilm olishga, to'g'rilikka oid nasihatlarining umuminsoniy mazmun-mohiyati. Abay nasihatlarida sharqona odob va axloq masalalarining ifodalanishi. Mazkur nasihatlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Haydar Xorazmiy. "Bo'z to'quvchi kampir" hikmati. (A2+3 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Hikmatning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati. Unda manfaat uchun ikki yuzlamachilik qilishning qoralanishi. Asarda hayotiy voqeaning ta'sirchan ifodalangani. Hikmatning badiiy xususiyati.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Xalq qo'shiqlari;

Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar.

Gulxaniy. "Zarbulmasal" asari.

Avaz O'tar. She'rlar.

Abay. Nasihatlar.

IV. RANGIN TUYG'ULAR

(11 soat, A2+:11 soat)

38-39-mavzu. Zulfiya. "Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..", "Bog'lar qiyg'os gulda", "Bahor keldi, seni so'roqlab", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rlari. (2 soat, A2+:3 soat)

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Zulfiya she'rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg'usiga to'lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she'rlarida hayotga, yashashga bo'lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. Shoira she'rlarining badiiy jozibasi.

"O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rida urush keltirgan baxtsizliklar, uning mudhish oqibatlari, yurt tinchligi, xalq farovonligi buyuk ne'mat ekanligi, uni qadriga yetish haqidagi lirik qahramon kechinmalarining kuylanishi.

40-43-mavzu. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" asari. (4 soat A2+:6 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Yulduzli tunlar" asaridan olingan parchada chin insoniy fazilatlarining favqulodda holatlarda namoyon bo'lishi va bu holning mahorat bilan ifodalanishi.

Asarda murakkab davr shiddati va talotumlarining aks etishi. Ezgu insoniy xislatlarning milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qat'i nazar har kimning o'ziga bog'liqligi masalasi va bu masalaning asarda ifodalanishi. Asarning badiiy xususiyatlari.

44-46-mavzu. Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi. (3 soat A2+:5 soat)

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Yulduzlar mangu yonadi" qissasida o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va ma'naviy qadriyatlarining o'ta ta'sirchan, o'ziga xos yo'sinda aks ettirilganligi. Qissa qahramoni Bo'ri polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi.

Asarda o'zbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning g'oyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning Shukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida talqin etilganligi. Qissaning ta'sirchanligi va o'ziga xosligini ta'minlagan omillar. Asarning til xususiyatlari.

47-48-mavzu. Ibroyim Yusupov she'riyati. "Qadrdon so'qmoqlar" she'ri. (2 soat, A2+: 3 soat)

Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning hozirgi qoraqalpoq she'riyatida tutgan o'rni.

"Qadrdon so'qmoqlar" she'rida kindik qoni to'kilgan qishloqqa bo'lgan mehr-muhabbatning ifodalanishi. Vatanga bo'lgan muhabbatning qadrdon xonadon, qadrdon so'qmoqlarga bo'lgan muhabbatdan boshlanishi. She'rda lirik tuyg'uning mohirona ifodalanganligi.

Nizomiy Ganjaviy. Ruboiylar. (A2+: 3 soat)

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Adib ruboiylarida hayot haqiqatlari, yuksak insoniy fazilatlar talqini. "Umrimizku shom-u xufton orasi", "Adolat farzandi zafardir, zafar", "Ne gaplar bor, qaytarishga chidamaydi bet" ruboiylari tahlili.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi; nasriy va she'riy asarni ifodali o'qiy oladi; ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi; badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi; turli janr va hajmdagi 4-5 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi; asar qahramonlariga tavsif, insho (3-4 sahifa) yoza oladi.

A2+

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

o'rganilgan asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimini o'zgalarga tushuntirib bera oladi.

A2+

monologik va dialogik nutqlarni ifodali o'qiy oladi; musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+:2 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Zulfiya. She'rlar.

Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" asari.

Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi.

Ibroyim Yusupov. She'rlar.

Mavzularni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).

Nazorat ishlari uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).

Takrorlash uchun – 4 soat.

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat).

Jami: 68 soat, A2+:102 soat

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING DAVLAT TA’LIM STANDARTI
VA O‘QUV DASTURI
ADABIYOT
(7-SINFLAR)



Toshkent-2017

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI
UMUMIY O‘RTA VA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMINING DAVLAT
TA‘LIM STANDARTLARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

«[Ta‘lim to‘g‘risida](#)»gi va «[Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida](#)»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta‘lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti [1-ilovaga](#) muvofiq;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standarti [2-ilovaga](#) muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari [3-ilovaga](#) muvofiq;

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlarining davlat namunalari [4-ilovaga](#) muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun umumta‘lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi;

umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun filologiya fanlari va aniq fanlar bo‘yicha mashq daftarlarini nashr etish hamda yetkazib berish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 1-iyundagi PQ-363-son qarorida belgilangan darsliklarni nashr etish hamda yetkazib berishni moliyalashtirish tartibiga asosan, multimediali disk ilovasi bilan ta‘minlash esa — o‘qituvchilarni o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash tartibi asosida amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

ikki oy muddatda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlarini yangidan ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasinlar hamda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga yetkazsinlar;

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yaratilayotgan o‘quv-metodik majmualarning o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, rasmlarga boy, zamonaviy matbaa talablariga javob beradigan shakllarda chop etilishini ta‘minlasinlar;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish yuzasidan tegishli mutaxassislar uchun 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab maqsadli o‘quvlar tashkil etsinlar hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari dasturlari va o‘quv modullarining qayta ko‘rib chiqilishini ta‘minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2017-2018 o'quv yiliga qadar akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi taqdim etgan xarajatlar smetalari asosida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablarini, o'quv rejalari va dasturlarini, akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlari blankalarini chop etish uchun sarflanadigan mablag'larni belgilangan tartibda ajratsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [7-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari 2020-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va ilm-fan masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017 yil 6 aprel,
187-son

Umumiy o'rta ta'limning
DAVLAT TA'LIM STANDARTI

1-bob. Asosiy qoidalar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (keyingi o'rinlarda davlat ta'lim standarti deb ataladi) davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta'lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#);

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#);

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son [qarori](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida» 2013-yil 8-maydagi 124-son [qarori](#);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son [qarori](#);

O'zDSt 1.0-98. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar»;

O'zDSt 1.1-92. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari»;

O'z DSt 1.5-93. «Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni ko'rib chiqish, tekshirish, o'zgartirish kiritish va bekor qilish tartibi»;

O'z DSt 1157:2008. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo'lgan talablar.

O'z DSt 1.8:2009. Asosiy qoidalar. Tavsiyalar.

3. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

2-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari

4. Davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

5. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

3-bob. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari

6. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

4-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari

7. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

8. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — tayanch o'quv reja deb ataladi) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

9. Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

10. Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv REJASI

T/r	O'quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
		22	24	26	26	30,5	32,5	33,5	34	36	
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	22	24	26	26	30,5	32,5	33,5	34	36	264,5

1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67
2.	O'zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16
3.	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	23
4.	Tarix					2	2	3	3	4	14
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45
8.	Informatika va axborot texnologiyalari					0,5	0,5	0,5	1	2	4,5
9.	Fizika						2	2	2	2	8
10.	Kimyo							2	2	2	6
11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4
	Vatan tuyg'usi					1	1				2
	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari							1	1	1	3
14.	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7
15.	Tasviriy san'at	1	1	1	1	1	1	1			7
16.	Chizmachilik								1	1	2
17.	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	0,5						0,5	0,5	1	2,5
	Umumiy soatlar	22,5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	37	267
	Amaliy mehnat mashg'uloti (kun hisobida)					6	6	10	16		

11. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15 %gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

12. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (keyingi o'rinlarda — o'quv dasturi deb ataladi) tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

13. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

14. Baholash tizimi — davlat ta‘lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

5-bob. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartini joriy etish tartibi

15. O‘zbekiston Respublikasida davlat ta‘lim standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

16. Davlat ta‘lim standartini joriy etish, shu jumladan, umumta‘lim fanlari bo‘yicha ta‘lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan minimal talablarni, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

17. Davlat ta‘lim standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish

18. Davlat ta‘lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta‘lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta‘lim sifatini ta‘minlashdan iborat.

19. Davlat ta‘lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

davlat ta‘lim standarti talablari asosida barcha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga baho berish;

tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida davlat ta‘lim standartlari talablari bajarilishi va ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni, foydalanilgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlil qilish.

20. Umumiy o‘rta ta‘lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta‘lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta‘limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta‘limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta‘limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

21. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi o‘quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

22. Davlat ta‘lim standarti talablarining bajarilmaganligi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha
MALAKA TALABLARI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1-§. Qoʻllanish sohasi

1. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari (keyingi oʻrinlarda — Malaka talablari deb ataladi) umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi davlat taʼlim standartlarining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning bosqichlarini, oʻquv fanlari boʻyicha taʼlim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2. Malaka talablari taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organlari hamda umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan qoʻllanilishi majburiydir.

3. Malaka talablari asosida taʼlim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻquv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun umumtaʼlim fanlari boʻyicha nazorat-baholash koʻrsatkichlari ishlab chiqiladi va vakolatli vazirliklar, idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

2-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida umumtaʼlim fanlarini oʻrganish bosqichlari

4. Oʻzbekiston Respublikasi umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida davlat taʼlim standartlariga asoslangan holda umumtaʼlim fanlarini oʻrganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
A1+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi
A2	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning tayanch darajasi
A2+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning umumiy darajasi
B1+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

3-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablarining tuzilishi

5. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari:

- oʻquv fanini oʻrganishning bosqichlarini;
- tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni;
- oʻquv fanining maqsad va vazifalarini;
- umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning mazmunini;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalarini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

4-§. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar

6. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan

UMUMIY TALABLAR

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Umumiy talablar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2006-yil 31-maydagi 362-son, Vazirlar Mahkamasining «2005-2009 yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida» 2004-yil 22-noyabrdagi 548-son hamda «2009-2013 yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanmalarini nashr etish dasturi to'g'risida» 2009-yil 20-martdagi 80-son qarorlariga muvofiq, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Umumiy talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

O'quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

3. O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

4. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qonun hujjatlari hamda ushbu Umumiy talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsad va vazifalari

5. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o'quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

6. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

3-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari

7. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

4-bob. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar

8. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

Didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illustriyasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustriyasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

Estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

matn va illustriyasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida» 2015-yil 3-iyundagi 146-son [qarori](#) talablariga mos bo'lishi lozim.

Adabiyot fani

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) adabiyot fanini o'rganish bosqichlari

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Adabiyot fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Adabiyot fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Adabiyot fanini o'rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Adabiyot fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2+	Adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	Adabiyot fani chuqurlashtirilmagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari	B1	Adabiyot fanini o'rganishning umumiy darajasi
	Adabiyot fani chuqurlashtirilgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari	B1+	Adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Adabiyot fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot fanining

mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Adabiyot fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi
muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari**

1. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

A1

ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;
ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;
yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;
matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o'qiy oladi;
bir daqiqada 50 — 55 so'zni o'qiy oladi;
monologik va dialogik nutqda o'z fikrini aniq ifodalay oladi;
o'rganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
kichik hajmdagi 8 — 10 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

bir daqiqada 55 — 60 so'zni o'qiy oladi;
asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
kichik hajmdagi 10 — 12 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A2

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildiradi;

nasriy, she'riy, dramatik asar namunalarini ifodali o'qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta so'zlab bera oladi;

turli janr va hajmdagi 8 — 10 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va ushbu yo'nalishlarda insho (5 — 7 sahifa) yoza oladi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi;

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, turli janrdagi adabiyotlarni tanlab mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

A2+

Turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi;

turli janr va hajmdagi 10 — 12 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

B1

Badiiy ijod namunalari (nasriy, she'riy, dramatik asar)ni ifodali o'qiy oladi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi, anglaydi va idrok eta oladi;

badiiy asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o'zgalarga tushuntirib bera oladi, tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi;

shaxs sifatida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlay oladi, o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi;

xalq maqollari, matallari, aforizmlardan og'zaki nutqda o'rinli foydalana oladi;

turli janr va hajmdagi 12 — 14 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

B1+

o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining janr xususiyatlarini ajrata oladi;

musiqa va rang-tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qiladi va uni so'z bilan ifodalay oladi;

adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarni tushuntira oladi;

turli janr va hajmdagi 14 — 18 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A1

matndagi so'z va gaplarning ma'nolarini tushuna oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

xalq og'zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildiradi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

A2

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she'riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topib, tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yuritadi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asar qahramonlari xarakteriga xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

A2+

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi.

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

B1

badiiy ijod namunalarini (nasriy, she'riy, dramatik asarni) ifodali o'qiydi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi, anglaydi va idrok etadi;

badiiy asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o'zgalarga tushuntirib beradi, tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi;

shaxs sifatida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlaydi, o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi;

xalq maqollari, matallari, aforizmlardan og'zaki nutqda o'rinli foydalanadi;

she'riy matn yoki uning parchasini ifodali yod ayta oladi.

B1+

o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini ifodali o'qiydi, she'riy san'at turlari, janr xususiyatlarini ajrata oladi;

musiq va rang-tasvir asari zahiridagi badiiy jozibani his qiladi va uni so'z bilan ifodalay oladi;

adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarini tushuntira oladi;

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

ADABIYOT FANIDAN O'QUV DASTURI (7-SINF)

UQTIRISH XATI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildiradigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy ta'limni o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim adabiy o'qishlar tarzida o'rgatiladi. Bola o'qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasi shakllantiriladi, og'zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish o'rgatiladi.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ravon o'qiy olish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq uqib olishi qayta hikoya qilish, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning ijodiy o'y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san'atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o'rin tutadi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganiladi.

Uzviylik va uzluksizlik dastur tayangan asosiy tayanch nuqtalaridan biridir. Ayrim so'z ustalari nomlarining takrorlanishi ularning e'tiroflari, shuningdek, asarlaridagi yuksak badiiy-estetik g'oyalarning san'atkorona ifodalariga bog'liqligini alohida ta'kidlash joiz.

Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda o'rganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib o'rganiladi. Bunda asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

- asosiy urg'u yuksak badiiylik talabalariga to'la javob beradigan asarlarga qaratiladi;
- ushbu bosqichda mumkin bo'lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko'ra oldingi bosqichlarda takrorlanmaydigan ijodkorlar va badiiy asarlar tanlab olinadi;
- ularni o'rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o'rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko'paytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning o'ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug'diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so'zlarning qo'llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so'z poetikasi va b.)ni teranroq ilg'ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o'ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan nisbatan "qiyinroq" va "murakkabroq" asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko'zda tutilganligi o'quvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar asos qilib olinadi.

Chuqurlashtirilgan maktab (sinf)larda adabiyot fanini kengroq o'rganish maqsadida o'quv dasturida qo'shimcha ikki soat vaqt ajratilgan. Bu ikki soatning bir soati (34 soat) oddiy sinflar (A2) uchun tuzilgan o'quv dasturi mavzulari tarkibida berildi, ya'ni 5-sinfda A2: 102 soat; A2+: 136 soat davomida o'rganiladi. Ajratilgan ikkinchi soatda esa, 5-6-sinflarda "Ifodali o'qish", 7-9-sinflarda esa, "Notiqlik san'ati" yondosh dasturlari o'rganiladi.

Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutiladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llay olish.

A2+

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o'z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera olish.

A2+

badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'at va boshqalarga doir kitoblarni muntazam o'qish, o'rganish va xulosa chiqarish, tegishli holatlarda ulardan o'z fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma'naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o'ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnatilgan olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay olish hamda tushuntirib bera olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

A2+

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'la olish hamda ulardan foydalana olish.

Ta'kidlash joizki, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

I. TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish)
2. FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

7-sinf

(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

A2+

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

A2+

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish, o'z xatti-harakatini baholash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

A2+

oila, maktab, mahallada bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'z burchini tushunish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, orasta kiyinish.

A2+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

A2+

kundalik reja tuza olish, turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

1-mavzu. Kirish. Badiiy so'z qudrati (1 soat)

Badiiy adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning boshqa san'at turlari o'rtasidagi o'rni va ahamiyati. Hayot hodisalarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashning o'ziga xosligi. Badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan va san'atning boshqa turlaridan farqi. Adabiy tur va janrlar.

I. KO'ZIM QAROG'IDASAN, VATAN! (7 soat, A2+: 2 soat)

2-3-mavzu. Hamza. "Jonlarni jononi vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlari. (2 soat)

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodida Vatan mavzuining asosiy o'rinni egallash sabablari.

"Vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlarida chorizm zulmi ostida ezilgan, jaholat botqog'iga botgan Turkiston xalqlari qismatiga qayg'urish. Shoirning xalq og'zaki ijodiga xos timsollar va xalq iboralaridan foydalanishi.

4-5-mavzu. Saida Zunnunova. "Mening Vatanim!", "Yer uzra qo'ndi oqshom", "Qizimga", "Buvilar duoga qo'llarin ochib" she'rlari. (2 soat)

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Saida Zunnunova she'rlaridagi tuyg'ular teranligi va samimiyligi. "Mening Vatanim!" she'rida yurtga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. "Yer uzra qo'ndi oqshom", "Qizimga" she'rlarida ona mehrining badiiy yo'sinda ifodalanganligi.

Saida Zunnunova she'rlarining badiiy xususiyatlari.

6-7-mavzu. Shuhrat. “Mardlik afsonasi” balladasi. (2 soat)

Shuhrat hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. “Mardlik afsonasi” balladasida o'zbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashining tasvirlanishi. To'maris obrazi. To'maris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. “To'maris” hikoyasi bilan “Mardlik afsonasi” balladasi o'rtasidagi yaqinlik va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati.

Nazariy ma'lumot. Ballada haqida.

8-mavzu. Rasul Hamzatov. “Ona tilim”, “Kenja nevaram Shahrizodga” she'rlari. (1 soat, A2+: 3 soat)

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Ona tilim” she'rida ona tilining millatni, shu millatga mansub har bir shaxsning o'zligini saqlab qoluvchi vosita ekanligining ko'rsatilishi. Tilga muhabbat orqali elga muhabbat paydo bo'lishining ifodalanishi. “Kenja nevaram Shahrizodga” she'rida avlodlar o'rtasidagi vorislik, davomiylik va ma'naviy javobgarlik tuyg'ularining aks etishi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Hamza she'rlari.

Saida Zunnunova. “Mening Vatanim!” she'ri.

Shuhrat. “Mardlik afsonasi” asari.

Rasul Hamzatov. “Ona tilim” she'ri.

II. O'YLARIMNING CHEKSIZ OSMONI

(10 soat, A2+: 9 soat)

9-10-mavzu. Asqad Muxtor. “Yulduzim”, “Tug'ilish”, “Yo'l”, “O'zirniki emas bu umr...”, “Bir tup o'rik” she'rlari. (2 soat)

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Asqad Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. “Yulduzim”, “Tug'ilish”, “Yo'l”, “O'zirniki bu umr...” she'rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etib yashash va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. Asqad Muxtor she'rlaridagi fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'ziga xoslik. Bu she'rlarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. She'r vaznlari haqida.

11-13-mavzu. Mirmuhsin. “Me'mor” romanidan parcha. (3 soat, A2+: 5 soat)

Mirmuhsin hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Asarda XV asr voqealarining tasvirlanganligi. Asar qahramonining sidqidildan xizmat qilganligi, muhtasham binolar qurib, hukmdorlar shuhratiga shuhrat qo'shganligi, har qancha qiyinchilikka uchrasa-da, o'z qarashlariga, e'tiqodiga sodiq qolganligi. Me'mor taqdiri orqali iste'dodli kishilar timsolining berilishi. Asardagi Najmiddin Buxoriy timsoli.

Nazariy ma'lumot. Roman va uning turlari.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+: 2 soat)

14-15-mavzu. O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi. (2 soat)

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Qiyomat qarz" hikoyasida aks ettirilgan inson kechinmalari, iztiroblari tasviri, hikoyadagi insoniy qadriyatlar talqini. Asarda millatga xos samimiylik, soddalik, bag'rikenglik va irodalilikning ifodalanishi. Hikoya qahramonining qarzdorligi, kechinmalari va iztiroblarining haqqoniy tasvirlanganligi. Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarzi. Hikoya orqali millatga xos halollik, o'zganing haqidan qo'rqish kabi insoniy sifatlarning ulug'lanishi.

Nazariy ma'lumot. Hikoya haqida.

Mark Tven. "Tom Coyerning yangi sarguzashtlari". (A2+: 3 soat)

Mark Tven hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

"Tom Coyerning yangi sarguzashtlari" asari avtobiografik asar sifatida. Tom – ta'qiqlarni buzuvchi, yangilikka intiluvchi, xayolparast va tirishqoq bola sifatida tasvirlanganligi. Asarda bolalar dunyosining o'ziga xos tarzda tasvirlangani. Asarning badiiy-estetik xususiyatlari va ma'rifiy, badiiy ahamiyati.

16-18-mavzu. Ch. Aytmatov. "Oq kema" qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)

Adib haqida qisqacha ma'lumot. "Oq kema" qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida ham namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta'siri.

Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.

Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati.

Nazariy ma'lumot. Ramziy obrazlar.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Asqad Muxtor. She'rlar.

Mirmuhsin. "Me'mor" romanidan parcha.

O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi.

Chingiz Aytmatov. "Oq kema" qissasi.

III. O'TMISHDAN SADOLAR

(12 soat, A2+: 10 soat)

19-21-mavzu. "Ravshan" dostoni. (3 soat, A2+: 5 soat)

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. "Go'ro'g'li" turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda "Ravshan" asarining tutgan o'rni.

Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunus pari, Avazxon, Ravshan, Zulxumor, aka-ukalar obrazlarining tahlili.

Nazariy ma'lumot. Badiiy obraz va mubolag'ali tasvir.

22-24-mavzu. Alisher Navoiy. "Mehr va Suhayl". (3 soat, A2+: 5 soat)

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Sab'ai sayyor" dostoni haqida. "Sab'ai sayyor" dostonida beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuyg'ular ifodasi.

Obrazlar tahlili. Mehr va Suhaylning o'ziga xos sifatlari.

Nazariy ma'lumot. She'riy san'atlar (Tashbih, tanosub) haqida.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko'rib tushuna oladi;

nasriy va she'riy asarlarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho yoza oladi.

A2+

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she'riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi, o'rganilgan asarlarni o'qituvchi yordamida tahlil qila oladi;

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildiradi.

A2+

asar qahramonlari xarakteriga xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;

notiqlik san'atining mazmun-mohiyatini tushunadi va izohlay oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

25-26-mavzu. Uvaysiy. "Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiymon", "Sog'indim" g'azallari, "Anor", "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari. (2 soat)

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiymon" g'azalida ijtimoiy hayot hodisalaridan norozilik, ularga nisbatan ko'ngildagi iztirob va kechinmalarning ta'sirli aks ettirilishi. "Sog'indim" g'azalida farzandi yo'liga ko'z tikkan ona tuyg'ularining aks etishi.

Shoiraning "Anor", "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari hamda ularning o'ziga xos badiiy

xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Chiston , qofiya va radif haqida tushuncha.

27-28-mavzu. Zavqiy. “Ajab ermas” g‘azali, “Ahli rasta” hajviyasi.

(2 soat)

Shoir haqida qisqacha ma'lumot. “Ajab ermas” g‘azalida kelajakka ishonch, yaxshi kunlarga umid tuyg‘usining aks etishi. “Ahli rasta” hajviyasida davr odamlaridagi illatli sifatlarning aks etishi. Asarlarning joziba va ta’sirchanligi.

29-30-mavzu. Maxtumquli. She’rlar. (2 soat)

Maxtumquli hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Maxtumquli ijodining barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va mo‘tabar ekanligi. Shoir she’rlarida ma’naviy-axloqiy mavzularning ustuvorligi.

“Adolat yaxshi” va shu turkumdagi she’rlarning tahlili. She’rlarda umuminsoniy g‘oyaning ilgari surilgani. Maxtumquli she’rlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning ma’rifiy-tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

“Aytishuv” she’rida dialog shaklining namoyon bo‘lishi, personajlarning topqirlik, adolat, inson taqdiri haqidagi qarashlarining o‘ziga xos ifodasi.

Shota Rustaveli. “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonidan parcha. (A2+: 4 soat)

Dostonda umumbashariy g‘oyalarning yuksak badiiy tarzda ifoda etilgani. Asarda chin insoniylik, sadoqat, mardlik singari insoniy fazilatlarining ulug‘lanishi. “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostoni – jahon adabiyotining eng go‘zal namunalaridan biri sifatida.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

“Ravshan” dostoni.

Alisher Navoiy. “Mehr va Suhayl” hikoyasi.

Uvaysiy. G‘azal va chistonlar.

Zavqiy. G‘azallar.

Maxtumquli. She’rlar.

IV. YANGI DAVR NAFASI

(18 soat, A2+: 13 soat)

31-33-mavzu. Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” romani. (3 soat, A2+: 5 soat)

Adib haqida qisqacha ma'lumot. Romanning “Qo‘rqinch bir jasorat” bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik o‘rtasidagi to‘qnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda ko‘rsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik, adolatsizlik, zo‘ravonlik kabi xislatlarga qarshi qo‘yilishi. Anvar va Ra‘no timsollarining o‘ziga xosligi .

Yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Qobilboy, Safar bo‘zchi singari timsollarning o‘ziga xos jihatlari tasviri. Asarning to‘liq o‘qilishiga erishish.

34-36-mavzu. Cho‘lpon. “Binafsha”, “Go‘zal”, “Ko‘ngil”, “Xalq”, “Buzilgan o‘lkaga” she’rlari. (3 soat)

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. “Go‘zal” she’rida go‘zallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati po‘rtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining ta’sirchan ko‘rsatilishi. “Binafsha” she’rida binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi.

Mazkur she'rlarda ifodalash mushkul bo'lgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir she'rlarida lirik qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qo'llanishi. Cho'lponning so'z va poetik obrazni yaratish mahorati.

“Xalq” va “Ko'ngil” she'rlarida Cho'lpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon bo'lishi

Nazariy ma'lumot. Ko'chim.

37-39-mavzu. Abdulla Qahhor. “O'g'ri”, “Dahshat” hikoyalari. (3 soat)

Adib haqida qisqacha ma'lumot. “O'g'ri” hikoyasida jabrdiyda chol Qobil bobo va o'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirgan amaldorlar obrazi. Adibning tasvirlash mahorati, so'z qo'llash san'ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlarini ocha bilish iste'dodi.

“Dahshat” hikoyasida insonni yengish mumkin emasligining kurashchan ayol - Unsin obrazi misolida g'oyat ta'sirchan ko'rsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va ta'sirchanligi.

Mavzu: Hamid Olimjon. “Holbuki tun”, “G'azal” she'rlari. (A2+: 2 soat)

Shoir haqida ma'lumot. “Holbuki tun” she'rida ilohiy go'zallik tasviri. Shoirning inson qalbi tebranishlarini nozik ilg'ab, aniq ifodalagani.

“G'azal”da an'anaviy she'riy shakldan foydalanilgan holda zamonaviy mazmunning ifodalanishi. She'rda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a singari badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi.

Mavzu: Maqsd Shayxzoda. “Yillarning salomin yillarga eltib” she'ri, to'rtliklar. (A2+: 2 soat)

Shoir haqida qisqacha ma'lumot. M. Shayxzoda she'riyatida hayotga falsafiy qarashning ustuvorligi. She'rda vaqt qadrini, uni chuqur his qilgan kishi tuyg'ularining aks etganligi. Asarda shoirning hayotga muhabbati, yashashga chanqoqligi xislatlarining tasvirlanganligi. She'rning ta'sirchanligini ta'minlagan badiiy vositalar.

To'rtliklarda insonni avaylash, unga imkon boricha muruvvat ko'rsatish fikrlarining badiiy aks etganligi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat).

40-42-mavzu. Mirtemir. “Men tug'ilgan tuproq”, “Onaginam”, “Toshbu”, “Betobligimda” she'rlari. (3 soat)

Mirtemirning qalamkash do'stalaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar.

“Onaginam” she'rida uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug'yonlarining aks ettirilishi. Tug'yonlar ko'لامي va shoirning tasvirlash mahorati. “Toshbu” she'rida o'zbek ayollariga xos yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarining yorqin va ta'sirchan aks ettirilishi. “Men tug'ilgan tuproq” she'rida ona yurt obrazining yaratilishi. She'rning samimiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san'ati. Uning she'riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo'ylik.

Nazariy ma'lumot. Tabiat lirikasi haqida.

43-44-mavzu. Xayriddin Saloh. “Yulduzlar afsonasi” asari. (2 soat, A2+: 4 soat)

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Yulduzlar afsonasi" asarining o'zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va xayolot olami bilan bog'liqligi. Hulkar va Yetti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o'rtasidagi ziddiyatlar, kurashlar va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri. Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta'sirchan ifodalanganligi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. Ballada.

45-48-mavzu. E. S. Tompson. "Yovvoyi yo'rg'a" hikoyasi. (4 soat, A2+: 5 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning qalamiga mansub "Yovvoyi yo'rg'a" asarining ko'plab tillarga tarjima etilgani va katta shuhrat qozongani. Asarda erkinlik, hurlik tuyg'usining ulug'lanishi. Ozodlikning o'limdan kuchli ekanligi tasviri.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko'rib, tushuna oladi;

nasriy va she'riy asarlarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho (4-5 sahifa) yoza oladi;

turli janr va hajmdagi 5-6 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

A2+

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

o'rganilgan asarlarni o'qituvchi yordamida tahlil qila oladi;

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildiradi.

A2+

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

G'arb va sharqning mashhur notiqarlari, notiqlikning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini izohlab bera oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romani.

Cho'lpon. She'rlar.

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.
Mirtemir. She'rlar.
Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari.
E. S. Tompson. "Yovvoyi yo'rg'a" asari.

Asarlarni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).

Yozma ishlar uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).

Takrorlash uchun – 4 soat.

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi – 4 soat (A2+: 8 soat).

Jami: 68 soat, A2+:102 soat.

"Notiqlik san'ati" (Yondosh dastur)

(A2+ 34 soat)

Kirish. "Notiqlik san'ati" xususida umumiy tushuncha. (1 soat)

"Notiqlik san'ati" fanining maqsad va vazifalari, tarixi, notiqlikning o'ziga xos qirralari. Notiqlik – nutqning oqzaki shakli ekanligi. O'zbekistonda nutqqa e'tiborning kuchayganligi. O'zbek tilida fikr-mulohazalarni ravon ifodalashning muhimligi.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Ifodali o'qish mashqi.

G'arbdagi notiqlik san'ati tarixi xususida. (1 soat)

G'arbda notiqlik ritorika atamasi bilan nomlanganligi. Notiqlik san'atining qadim Yunonistonda shakllanganligi. Bu san'atning bevosita davlat ishlari bilan bog'liq rasmiy doiralarda nutq so'zlash bilan bog'liqligi. Mashhur notiqlar haqida ma'lumot. Aristotel (384-322), Demosfen (384-322) va Sitseron (103-43) faoliyati.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

G'arbdagi mashhur notiqlar fikrlaridan namunalar.

Sharqdagi notiqlik san'ati tarixiga doir. (2 soat)

Sharq dunyosida, xususan, musulmon olamida notiqlik san'ati bevosita muqaddas kitob - Qur'oni Karimni tilovat qilish, hadisi sharifni tushuntirish bilan bog'liqligi. Sharqda notiqlar voiz – va'z, suxandon, ma'ruza aytuvchi deb yuritilganligi. Balog'at va fasohat xususida. Sharqdagi mashhur voizlar to'g'risida ma'lumot. Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mashhur shaxslar faoliyati.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Sharqdagi mashhur notiqlar fikrlaridan namunalar.

O'zbek adiblari notiqlik haqida. (2 soat)

Mashhur o'zbek adiblarining notiqlik, nutq madaniyati va odobi to'g'risida aytgan fikrlarining ahamiyati. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va boshqa ijodkorlar notiqlik haqida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Notiq nutqining bezagi. (2 soat)

Nutqni bezaydigan omillar xususida. Frazologik birliklar, maqol, hikmatli so'z va ichki sa'j nutqning ta'sirchanligini oshiradigan asosiy omillar sifatida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiqlik san'ati va nutq sifati. (2 soat)

Notiqlik san'atida nutq umuman yaxshi va yomon nutq shaklda farqlanishi. Nutq sifatiga aniqlik, ravonlik, ta'sirchanlik, tozalik, izchillik, mantiqiylik va boshqa sifatlar kirishi. Nutqning puxtaligi.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiqlik san'atida reja va vaqt me'yori. (2 soat)

Notiqlik san'atida rejaning ahamiyati. Vaqt me'yoriga amal qilish zarurati. Nutq bayonidagi mezon va reglament masalasi. Fikr bayonida tinglovchi ruhiyati. Maxsus nutq va munosabat nutq yuzasidan ma'lumot.

Notiqlik turlari va nutq ko'rinishlari haqida ma'lumot. (2 soat)

Nutqning yozma va og'zaki nutq shakllari borligi. Notiqlik san'atida ijtimoiy-siyosiy notiqlik, ilmiy-pedagogik, maishiy nuqtalarning farqlanishi. Shoir, so'z ustasi, aktyorlarning nutqi masalasi. Ommabop, dialogik va monologik nutqlar xususida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiq mahorati. (2 soat)

Notiqlikda iste'dod zarurati va mashqning ahamiyati. Notiqning so'z tanlashi. So'z ustalarining o'z nutqlari ustida qunt bilan rejali ravishda mashqlar bajarishi. Notiqlikda muomala odobi masalasi. Notiqlik san'atida undalmaning o'rni. Notiqlikda obrazga kirish, tabiiylik va ishonchning ahamiyati kattaligi.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Takrorlash: (1 soat)

"Notiqlik san'ati" fani yuzasidan xulosalar bayon qilish. Mazkur fanni o'rganish jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash. O'quvchilardagi notiqlikka bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish.

Mavzularni o'rganish uchun –16 soat

Amaliy mashg'ulotlar uchun –16 soat

Takrorlash – 2 soat

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 16 -avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 -yil 1- iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013- yil 8- maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.

10. Internet saytlari: www.fgosvo.ru, ru.wikipedia.org , mel.fm (Rossiya); online.zakon.kz, www.kaznu.kz (Qozog‘iston); ushbu internet saytlaridan Rossiya, Qozog‘iston, Koreya va hk. Davlatlarining tajribasi o‘rganildi.

Umumiy o‘rta ta’limning Adabiyot fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi


T/r	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1	To‘xliiev Boqijon	Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti professori, f.f.d.
2	Karimov Bahodir Nurmetovich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.
3	Usmanova Komila Rahmonovna	Respublika ta’lim markazi bosh metodisti
4	Ahmedov Hoshimjon	Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi AL ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
5	Toshmirzaeva Sharofat Mirboboevna	XTV tasarrufidagi Filologiya yo‘nalishidagi ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
6	Nurmuxammadov Jamoliddin Shermuhammad o‘g‘li	Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at ALning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
7	Ergasheva Aykumush Xushvaqtoevna	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 22-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
8	Turdieva Gulnoza Sayfullaevna	O‘zMU qoshidagi Zangiota ALning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
9	G‘affarova Tal’at	Qarshi DU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası professori
10	Karimova Fotima Botirovna	Chilonzor tumani 281-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
11	Yusupova Mohinur Ataboevna	Respublika ta’lim markazi bosh metodisti
Ekspert guruhi tarkibi		
1	Mamanboeva Gulchehra	Toshkent shahar XTBB Metodika markazi ona tili va adabiyot fani metodisti
2	Usmanova Mahmuda	Toshkent shahar Yunusobod tuman ona tili va adabiyot fani metodisti

3	Valieva Mahmuda	Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
---	-----------------	--

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**FILOLOGIYA FANLARI BLOK MODULI BO‘YICHA
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(VIII sinf)**

ADABIYOT



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

Adabiyot ta'limi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va tafakkurini rivojlantirishda hamda so'z san'atiga, Vatanga, milliy an'ana va boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy fanlar tarkibiga kiradi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasidagi adabiyot fani o'quvchilarda insoniy fazilatlarni, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot fanini o'qitishning **maqsadi**: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning adabiy-estetik didini, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'z xatti harakatlariga javob bera oladigan sog'lom e'tiqodli komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Adabiyot fanini o'qitishning asosiy **vazifalari**:

o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qitish orqali qahramonlarning tuyg'ularini, egzu fazilatlarini anglatish, ularni badiiy estetik his etishga undash, ma'nan-axloqan komil shaxs sifatida tarbiyalash;

o'quvchilarning til boyliklaridan ravon va savodli foydalanish, adabiy til me'yorlariga rioya etish, og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirish;

badiiy adabiyotga mehr uyg'otish orqali fanning mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganiladi.

Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda o'rganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib o'rganiladi. Bunda asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

- asosiy urg'u yuksak badiiylik talablariga to'la javob beradigan asarlarga qaratiladi;
- ushbu bosqichda mumkin bo'lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko'ra oldingi bosqichlarda ijodkorlarning takrorlanmaydigan asarlari tanlab olinadi;
- ularni o'rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o'rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko'paytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning o'ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug'diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so'zlarning qo'llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so'z poetikasi va b.)ni teranroq ilg'ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o'ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan, nisbatan "qiyinroq" va "murakkabroq" asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko'zda tutilganligi o'quvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar asos qilib olinadi.

Shuningdek, dastur mazmunida o'quvchilarni ezgu fazilatlar asosida tarbiyalash bilan birga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (inglizcha – Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) o'quvchilarni Xalqaro baholash dasturi PISA (inglizcha – Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish xalqaro dasturi) talablari asosida mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan test va topshiriqlarni aks ettirishga ahamiyat qaratildi.

O'quv dasturidagi har bir bo'limning yakunida zaruriy manbalar raqam shaklida kiritildi. Ushbu badiiy adabiyotlar o'quvchilarga sinfdan tashqari va mustaqil o'qishlari uchun tavsiya etiladi.

Nazorat ishi (joriy, yakuniy) uchun soatlar alohida dastur yakunida berilgan jadvalda keltirilgan. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan: matn, insho, qahramonlarga tavsif, savollarga javob yozish topshiriqlaridan foydalanishda DTS talablaridan chiqmagan holda PISA, PIRLS asosida ijodiy yondashish tavsiya etiladi.

O'quv dasturining boshida sinf o'quvchilari o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

O'quv dasturi avvalo, ta'lim muassasasining metodbirlashmasida o'rganilib, o'quvchilar o'zlashtirish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda (belgilangan soatlar doirasida 15 foizga o'zgartirish kiritish mumkin) taqvim mavzuviy reja ishlab chiqiladi va pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Mazkur dastur asosida o'qituvchi taqvim mavzuviy reja tuzishda bobda belgilangan soatdan chiqmagan holda nazariy ma'lumotlar uchun ham alohida 1 soat ajratishi mumkin.

O'quv dasturi bo'yicha o'qituvchilar taqvim mavzuviy reja ishlab chiqishda 1 ta nazorat ishi uchun 1 soatdan 2 soatgacha belgilashi, takrorlash uchun ajratilgan soatlarni o'quvchilarga murakkablik qilgan mavzularga qo'shib berishi mumkin.

Mustaqil o'qish, takrorlash, test(PISA, PIRLS) uchun ajratilgan, dastur boblarida ko'rsatilgan soatlar har bir chorak uchun belgilandi.

Dasturda keltirilgan mavzularga qarab o'quvchilarni tanqidiy, mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat ishi o'tkazish yuzasidan VIII sinflarda har bir chorak uchun 4 soatdan ajratildi. Bunda 1 chorakda 4 soat ajartilgani, har bir chorakda 2 soatdan 2 ta mavzu bo'yicha insho yozish uchun mo'ljallangan.

Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari uchun ushbu adabiyot dasturini chuqurlashtirib, 34 soat hamda notiqlik san'ati dasturining 34 soat qo'shilib, jami 8-sinflarda 136 soat o'tiladi.

ADABIYOT

VIII sinf

(68 soat)

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

turli adabiy janrlarga oid bahslarda ishtirok etadi;
ezgu g‘oya va insoniy fazilatlar xususida fikr yuritadi;
badiiy adabiyot turlarini ajrata oladi;
asar qahramonlari xarakterini baholaydi;
o‘zbek milliy dramaturgiyasi namunalarini tushunadi;
g‘azallarning o‘quv tahlilini uddalaydi;
turli vaziyatlarda nutq madaniyati qoidalariga rioya qiladi;
adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yozadi;

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

g‘azallarning o‘quv tahlilini qila oladi;
she‘r va asarlarni mustaqil tahlil qiladi;
asar qahramonlariga tavsif yozadi;

Kirish (1 soat)

Davr, ijodkor va adabiyot. Adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarning aks ettirilishi. Muayyan davrga xos xususiyatlarning badiiy asarlarda tasvirlanishi. Adabiyotning ijtimoiy muammolarga hamohangligi va umrboqiyliigi. Badiiy adabiyot adabiy til shakllanishida asosiy vosita sifatida.

I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI

(4 soat)

“Kuntug‘mish” dostoni

“Kuntug‘mish” dostoni syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug‘mish obrazi. Unga xos jo‘mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda soddalik sifatleri. Kuntug‘mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatleri. Xolbekada o‘zbek qizlariga xos go‘zallik, o‘ktamlik, erkalik, shaddodlik, mayinlik va mehribonlik sifatleriining namoyon bo‘lishi. Dostondagi Gurkiboy va Mohiboy obrazleriining tasviri. Doston matni ustida ishlash. Dostonning badiiy xususiyatlari.

Adabiyotlar: 1, 6, 7, 10, 11

II BOB. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

(10 soat)

Lutfiy. “Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul”, “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azallari va tuyuqlari

Lutfiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Lutfiy merosi va xalq og‘zaki ijodi. G‘azallariining tahlili. Ularning vazni, tasvir vositalari va boshqa badiiy xususiyatlari .

Lutfiy – tuyuq ustasi. “Ko‘ngluma har yonki boqsam dog‘i bor”, “Men sening ilkingdin, ey

dil, bandamen”, “Charxi kajraftor elidin yozamen” tuyuqlarida soʻz oʻyinlari. Matn ustida ishlash. Soʻz oʻyinlarining yuzaga kelishida tajnisning oʻrni.

Tuyuq haqida nazariy maʼlumot

Alisher Navoiy. Kichik hajmdagi sheʼrlari

Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari. Ularda yurt va Vatan sogʻinchi hayot hodisalari, yoshlikning qadri, ota-onaga hurmat va ehtirom kabi fazilatlarining ulugʻlanishi. “Gardun gar manga jafu-u dunluq qildi...”, “Ahbob, yigitlikni gʻanimat tutingiz...”, “Atodin xato kelsa koʻrma xato...”, “Gʻurbanda gʻarib shodmon boʻlmas emish” ruboiylari; “Necha dedim ul sanamgʻa bormagʻin...”, “Oʻtkali ul sarvi gul ruxsorida...”, “Tigʻi ishqing yorasidur butmagan...” tuyuqlari, “Yuqar yomonligʻ angakim...”, “Ulki sanga eldin erur aybgoʻ...”, “Men sinuq, koʻnglum sinuq, sabrim uyi...” fardlari matni ustida ishlash. Tuyuqlarda milliy til imkoniyatlarining yuzaga chiqishi. Fard ixcham hayotiy xulosalar uchun qulay janr.

Nodira. “Doda keldim...”, “Vasl uyin obod qildim...”, “Kel dahrni imtihon etib ket...” gʻazallari

Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Nodira gʻazallarida hijron va ayriliq ohanglari. Ularning badiiy yetukligi, gʻazallarda ayol tuygʻularining ifodalanishi. Matn ustida ishlash. “Doda keldim...”, “Vasl uyin obod qildim...”, “Kel dahrni imtihon etib ket...” gʻazallarining tahlili.

Nazariy maʼlumot: Talmeh, irsoli masal, tajnis

Adabiyotlar: 4, 7, 8, 10, 16, 17, 18

III BOB. XX ASR OʻZBEK ADABIYOTI

(20 soat)

Gʻafur Gʻulom. “Sogʻinish”, “Vaqt”, “Bilib qoʻyki, seni Vatan kutadi” sheʼrlari

Gʻafur Gʻulomning XX asr oʻzbek sheʼriyatida tutgan oʻrni. “Sogʻinish” sheʼrida otaga xos sogʻinch tuygʻusining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy oʻziga xoslikning boʻrtib koʻrinishi. Sheʼrda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuygʻularining falsafiy tasvirlanishi. “Vaqt” sheʼrida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga daʼvatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. “Bilib qoʻyki, seni Vatan kutadi” sheʼrida barkamol yoshlarni Vatan kutayotganligini, ularning Vatani oldidagi masʼuliyati shoirona mahorat bilan tasvirlanishi. Sheʼrlar matni ustida ishlash. Shoir sheʼrlarida soʻz qoʻllash sanʼati.

Oybek. “Naʼmatak”, “Oʻzbekiston” sheʼrlari

Oybekning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Oybek sheʼriyatining oʻziga xos xususiyatlari. Lirik qahramon ruhiyatining kashf etilishi va soʻz qoʻllashdagi mahorat. Shoir lirikasida tabiat, inson va tarix munosabatining ifodalanishi. “Naʼmatak”, “Oʻzbekiston” sheʼrlarining gʻoyaviy-badiiy tahlili. Sheʼrlar matni ustida ishlash.

Maqsud Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi

M. Shayxzodaning oʻzbek dramaturgiyasi taraqqiyotida tutgan oʻrni.

“Jaloliddin Manguberdi”– oʻzbek dramaturgiyasining yetuk namunasi. Asarda moʻgʻil istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni obrazi va unga xos boʻlgan vatanparvarlik sifatlarining tasviri. Asar qahramoni haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy toʻqimaning oʻzaro munosabati. Matn ustida ishlash. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi. Badiiy asar tahlili

Tragediya haqida nazariy maʼlumot

Usmon Nosir. “Yurak”, “Nil va Rim”, “Yana she’rimga” she’rlari

Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoirning adabiy merosi. Shoir she’rlarida tabiat go’zalliklari bilan pokiza qalbli inson tuyg’ulari o’rtasidagi hamohanglik.

“Yurak” she’rining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. She’rdagi tuyg’u va fikr parvozi. She’rning ohangdorligi. “Nil va Rim” she’ri erk madhiyasi ekanligi. She’rda tarixga – ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan asriy kurash sahifalariga murojaat qilib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi va davomiyligi masalasining yuksak ifoda etilgani.

“Yana she’rimga” sonetida lirik qahramonning she’riyatga, ijodga munosabati yorqin aks etganligi. Matn ustida ishlash. She’rda tilga olingan tarixiy va adabiy siymolarning asar badiiyatidagi o’rni.

Said Ahmad. “Ufq” romanidan parcha

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi haqida ma’lumot. Romanda o’zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi davridagi hayoti haqqoniy tasvir etilishi. “Hijron kunlarida” asarining bosh qahramoni Ikromjon – murakkab taqdirli shaxs. Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o’ziga xosligi. Asardagi tabiiylik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Matni ustida ishlash. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Roman shakllari haqida nazariy ma’lumot

Asqad Muxtor. “Chinor” romani

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Chinor” romani adibning ijodidagi yangi bosqich sifatida. Romanning yetakchi qahramonlari va kompozitsion o’ziga xosligi. Matn ustida ishlash. Akbarali qismati haqidagi fasl “Chinor” romanining eng dramatik sahnalaridan biri ekanligi. Asarda insoniy ojizlik, loqaydlik, qo’rqoqlik, irodasizlik fojiga olib kelishi mumkinligining ishonarli tasvirlab berilgani. Lahzalik qo’rqoqlik sababli Bektemirning o’limiga sabab bo’lgan Akbaralini vijdon azobi tinimsiz ta’qib etishi va oxir-oqibat halokatga olib kelishi. Bu voqea tasviridagi samimiylilik va ta’sirchanlik. Akbarali ruhiy olamining teran tasviri. Matn ustida ishlash. Romanning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Ozod Sharafiddinov. “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi

Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Adibning “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasida ilgari surilgan g’oyalar. Vatan tuyg’usi, Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash masalalari O.Sharafiddinov talqinida. Matni ustida ishlash. Maqolaning bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

To’ra Sulaymon. “Iltijo”, “Armon”, “Tavallo”, “Gul bir yon, chaman bir yon” she’rlari

To’ra Sulaymonning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’rlarining xalqchilligi. “Iltijo” she’rida hayotga, tiriklikka bo’lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg’ular rang-barangligi. “Armon” she’ri shoirning hayotiy qarashlari, e’tiqodlari mujassam bo’lgan asar sifatida. “Tavallo” she’rida onalarga xos bo’lgan fazilatlarining tarannum etilishi. Matni ustida ishlash. “Gul bir yon, chaman bir yon” she’rining ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg’ularining samimiy ifodalanishi.

Shukur Xolmirzayev. Hikoyalar

Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Ot egasi”, “Omon ovchining o’limi” hikoyalarida inson va tabiat o’rtasidagi uyg’unlikning ifodalanishi. Hikoyalarining syujeti, kompozitsion qurilishi va badiiy xususiyatlari. Matn ustida ishlash. Adib hikoyalarida tarixiy davrga xos voqealar bayoni.

Muhammad Yusuf. “Vatanim”, “Mehr qolur”, “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor” she’rlari

Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Muhammad Yusuf she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg'ularning samimiyligi va haqqoniyligi Muhammad Yusuf she'rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she'rlarida inson ko'nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo'lgan sezgilarning o'ta tabiiy aks ettirilishi. Matn ustida ishlash. Muhammad Yusuf she'rlarining jozibadorligini ta'minlab turgan samimiylilik, musiqiylik va tasvir.

Adabiyotlar: 1, 2, 6, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 19

IV BOB. JAHON ADABIYOTI

(7 soat)

Fuzuliy. G'azallar

Fuzuliyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning "Shifoyi vasl qadrin...", "G'amzasin sevdin, ko'ngul" g'azallarida ifodalangan yuksak badiiy mahorat, ishq va oshiqlik tasviri. Matn ustida ishlash. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati talqini.

Robindranat Thakur. "Shubxa" hikoyasi

Robindranat Thakurning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Hikoyada insoniy g'ururdan mahrum etilgan, nafsiga qul kishilar hamda ezgu tuyg'ular sohibi bo'lgan odam o'rtasidagi ziddiyatning ifodalanishi. Matn ustida ishlash. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va e'tiqodsizlik to'qnashuvining turli xarakterlar misolida ko'rsatilishi. Matn ustida ishlash. Adibning tasvirlash mahorati.

Sergey Yesenin. "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...", "Singlim Shuraga", "Ona ibodati", "It haqida doston" she'rlari

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Yesenin va O'zbekiston. "Fors taronalari" turkum she'rlarining yozilishi tarixi.

Sergey Yesenin she'rlarida Sharq ruhiyatining nozik ilg'ab olinishi va mahorat bilan aks ettirilishi. She'rlardagi lirizm va ritm. Matn ustida ishlash. Tilning jozibadorligi va obrazlarning milliy o'ziga xosligi. She'rlardagi lirizm va musiqiylikni saqlab qolishda Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

Adabiyotlar: 4, 5, 8, 11, 17

Adabiyot fanini mavzuiy rejalashtirish

T/r	BOBLAR NOMI	Soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni oʻrganish uchun ajratilgan	Nazorat ishi (xatolar ustida)	Takrorlash	Test	Mustaqil oʻqilgan sarlarni muhokama uchun ajratilgan
8- SINIF							
	Kirish	1	1				
1	I BOB. Xalq ogʻzaki ijodi	10	4	4	1		1
2	II BOB. Oʻzbek adabiyoti tarixidan	17	10	4	1	1	1
3	III BOB. XX asr oʻzbek adabiyoti	26	20	4	1		1
4	IV BOB. Jahon adabiyoti	14	7	4	1	1	1
	Jami	68	42	16	4	2	4

Adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishni mavzuiy rejalashtirish

T/r	BOBLAR NOMI	Umumiy o‘rta ta’lim maktablar uchun jami soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni o‘rganish uchun ajratilgan	Nazorat ishi (xatolar ustida)	Takrorlash	Test	Mustaqil o‘ qilgan sarlarni muhokamas uchun ajratilgan
8- SINIF							
	Kirish	1	1				
1	I BOB. Xalq og‘zaki ijodi	15	6	5	2	1	1
2	II BOB. O‘zbek adabiyoti tarixidan	26	15	5	2	2	2
3	III BOB. XX asr o‘zbek adabiyoti	37	28	5	2	1	1
4	IV BOB. Jahon adabiyoti	23	12	5	2	2	2
	Yondash dastur	34					
	Jami	136	62	20	8	6	6

Foydalanilgan va foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar, manbalar

1. Kuntug'mish dostoni. Toshkent.
2. K.Jo'rayev. "Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganish". – T., O'qituvchi, 1974.
3. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Mukammal asarlar to'plami –T., 1975.
4. S.Bobometov. "Aruz vaznidagi she'riy asarlarni ifodali o'qish" – T., Til va adabiyot ta'limi. 1992.
5. "Oshiqi sodiq Fuzuliy". Mirzo Kenjabek-T., 1972.
6. Safo Matjon. "Kitob o'qishni bilasizmi?" – T., O'qituvchi, 1993.
7. T.Boboyev. "She'r ilmi ta'limi". – T., O'qituvchi, 1996.
8. Q.Yo'ldoshev. "Adabiyot o'qitishning ilmiy nazariy asoslari". – T., O'qituvchi, 1996.
9. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. Sharq nashriyoti- T., 2000
10. A.Hojiahmedov. "Navoiy aruzi nafosati" – T., Fan, 2006.
11. Yo.Is'hoqov. "So'z san'ati so'zligi". – T., Zarqalam, 2006.
12. O.Sharaffidinov. "Devondagi o'ylar". – T., Ma'naviyat. 2004.
13. M. Shayxzoda. Saylanma. – T., G'afur G'ulom. 2015.
14. A.Muxtor. Saylanma. – T., G'afur G'ulom. 2015.
15. G'afur Gulom. Saylanma. – T., G'afur G'ulom. 2015.
16. Alisher Navoiyning 10 tomlik "To'la asarlar to'plami". – T., G'afur G'ulom. 2016.
17. B.To'xliyev, G.Ashurova. "Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish" – T., 2017.
18. O'zbek shoiralari. Toshkent.
19. M. Yusuf. She'rlar to'plami. Toshkent.
20. Internet saytlari: www.fgosvo.ru, ru.wikipedia.org , mel.fm (Rossiya); online.zakon.kz, www.kaznu.kz (Qozog'iston); ushbu internet saytlaridan Rossiya

Adabiyot fanidan o'quv dasturini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruh
RO'YXATI


/r	Ism-sharifi	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi	Imzo
1	To'xliyev Boqijon	Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti filologiya fanlari doktori professor	
2	Karimov Bahodir	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori	
3	Usmonova Komila	11-sinf adabiyot darsligi muallifi, Nafaqada	
4	Hamraqulova Xurshida	Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi f.f. n	
5	Ergasheva Shahnoza	Innovatsion rivojlantirish vazirligi davlat ilmiy texnika dasturlarini rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi, f.f. n	
6	Musurmonqulova Oysuluv	Respublika Ta'lim markazi metodisti	
7	Toshmirzayeva Sharofat	XTV tasarrufidagi FFIDUM o'qituvchisi	
8	Xo'jamberdiyeva Nilufar	Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 34-maktab o'qituvchisi	

LOYIHA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**FILOLOGIYA FANLARI BLOK MODULI BO‘YICHA
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(IX-SINF)**

ADABIYOT



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

Adabiyot ta'limi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va tafakkurini rivojlantirishda hamda so'z san'atiga, Vatanga, milliy an'ana va boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy fanlar tarkibiga kiradi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasidagi adabiyot fani o'quvchilarda insoniy fazilatlarni, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot fanini o'qitishning **maqsadi**: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning adabiy-estetik didini, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'z xatti harakatlariga javob bera oladigan sog'lom e'tiqodli komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Adabiyot fanini o'qitishning asosiy **vazifalari**:

o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qitish orqali qahramonlarning tuyg'ularini, egzu fazilatlarini anglatish, ularni badiiy estetik his etishga undash, ma'nan-axloqan komil shaxs sifatida tarbiyalash;

o'quvchilarning til boyliklaridan ravon va savodli foydalanish, adabiy til me'yorlariga rioya etish, og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirish;

badiiy adabiyotga mehr uyg'otish orqali fanning mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganiladi.

Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda o'rganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib o'rganiladi. Bunda asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

- asosiy urg'u yuksak badiiylik talablariga to'la javob beradigan asarlarga qaratiladi;
- ushbu bosqichda mumkin bo'lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko'ra oldingi bosqichlarda takrorlanmaydigan ijodkorlar va badiiy asarlar tanlab olinadi;
- ularni o'rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o'rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko'paytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning o'ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug'diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so'zlarning qo'llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so'z poetikasi va b.)ni teranroq ilg'ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o'ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan, nisbatan "qiyinroq" va "murakkabroq" asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko'zda tutilganligi o'quvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar asos qilib olindi. Bu dasturda o'quv soatlari ko'paytirilib, o'quvchilarni imkon qadar asar mazmunini to'liqroq tushuntirishga, egzu fazilatlarini anglatishga erishish nazarda tutildi.

Shuningdek, dastur mazmunida o'quvchilarni egzu fazilatlar asosida tarbiyalash bilan birga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (inglizcha – Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) o'quvchilarni Xalqaro baholash dasturi PISA (inglizcha – Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish xalqaro dasturi) talablari asosida mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan test va topshiriqlarni aks ettirishga ahamiyat qaratildi.

O'quv dasturidagi har bir bo'limning yakunida zaruriy manbalar raqam shaklida kiritildi. Ushbu badiiy adabiyotlar o'quvchilarga sinfdan tashqari va mustaqil o'qishlari uchun tavsiya etiladi.

Nazorat ishi (joriy, yakuniy) uchun soatlar alohida dastur yakunida berilgan jadvalda keltirilgan. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan: matn, insho, qahramonlarga tavsif, savollarga javob yozish topshiriqlaridan foydalanishda DTS talablaridan chiqmagan holda PISA, PIRLS asosida ijodiy yondashish tavsiya etiladi.

O'quv dasturining boshida sinf o'quvchilari o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

O'quv dasturi avvalo, ta'lim muassasasining metodbirlashmasida o'rganilib, o'quvchilar o'zlashtirish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda (belgilangan soatlar doirasida 15 foizga o'zgartirish kiritish mumkin) taqvim mavzuviy reja ishlab chiqiladi va pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Mazkur dastur asosida o'qituvchi taqvim mavzuviy reja tuzishda bobda belgilangan soatdan chiqmagan holda nazariy ma'lumotlar uchun ham alohida 1 soat ajratishi mumkin.

O'quv dasturi bo'yicha o'qituvchilar taqvim mavzuviy reja ishlab chiqishda 1 ta nazorat ishi uchun 2 soat belgilangan, xatolar ustida ishlash uchun vaqt ajratilishi tavsiya etiladi, takrorlash uchun ajratilgan soatlarni o'quvchilarga murakkablik qilgan mavzularga qo'shib berishi mumkin.

Mustaqil o'qish, takrorlash, test(PISA, PIRLS) uchun ajratilgan, dastur boblarida ko'rsatilgan soatlar har bir chorak uchun belgilandi.

Dasturda keltirilgan mavzularga qarab o'quvchilarni tanqidiy, mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari ushbu adabiyot dasturini chuqurlashtirib, qo'shimcha 34 soat, notiqlik san'ati dasturi 34 soat qo'shib, jami 9-sinflarda 170 soat o'tiladi.

ADABIYOT

IX sinf

(102 soat)

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

asarlardagi falsafiy qarashlarga munosabat bildiradi;

milliy va jahon madaniyati, adabiyoti xususida fikr yuritadi;

nutq madaniyati va muomala odobiga rioya qiladi;

mumtoz va hozirgi o‘zbek adabiyotida mavzu va tarixiy shaxslar obraziga nisbatan o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon qila oladi;

badiiy adabiyotdagi milliy va umuminsoniy g‘oyalarni farqlay oladi;

badiiy adabiyotning o‘rganilgan tur va janrlariga oid namunalarni tahlil qila oladi;

adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda og‘zaki va yozma matn yarata oladi.

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

she‘r va asarlar tahlil bo‘yicha taqdimot yaratadi;

yozuvchi mahoratiga baho beradi;

o‘zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasvirini ajratadi;

asarlarni badiiy-estetik tahlil qila oladi.

Kirish. (1 soat)

Badiiy adabiyot – obrazli tafakkur mahsuli. Shaxs kamolotida obrazli tafakkurning o‘rni. Mantiqiy va badiiy tafakkurning o‘zaro aloqador hamda farqli jihatlarini.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik, ma‘rifiy, kommunikativ vazifalari. Insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan axloqiy xislatlarni o‘quvchilarda tarkib toptirishga intilish badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi ekanligi. Insoniylik tuyg‘ularini rivojlantirish, tafakkurini taraqqiy ettirish badiiy adabiyotning ma‘rifiy vazifasi ekanligi.

I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI

(5 soat)

“Alpomish” dostoni

Turkiy xalqlar madaniyati va ma‘naviyati shakllanishida “Alpomish” dostonining o‘rni. Doston ko‘lamining estetik tafakkur va turkiy davlatchilik bilan bevosita bog‘liqligi.

Dostonda o‘zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri. Alpomish, Qorajon, Oybarchin, Qaldirg‘och obrazlari tavsifi. Doston matni ustida ishlash.

Asarning til xususiyatlari. Dostonda qo‘llanilgan tasvir usullari.

Adabiyotlar: 6, 8, 12

II BOB. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

(20 soat)

Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni

Navoiy ijodi – o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi.

“Farhod va Shirin” dostonining “Xamsa”da tutgan o‘rni. Dostonning obrazlar tizimi. Komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri. Shirin obrazi. Unda ayollarga xos ma‘naviy fazilatlar talqini.

Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o‘rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko‘rsatilishi. Matni ustida ishlash. Doston qahramonlaridagi ma‘naviy xususiyatlarga alohida urg‘u berilgani. Dostonning badiiy

xususiyatlari.

Xoja. “Gulzor” asaridan parcha

Xoja hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Asarning badiiy xususiyati. “Gulzor” asaridagi hikoyalardan namunalar. Matn ustida ishlash. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Muhammadrizo Ogahiy. She’rlar

Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot.

Shoir g‘azallarida tabiat manzaralari. Navro‘z, bahor, qish haqidagi she’rlari. “Baland aylab quyoshg‘a poya Navro‘z”, “Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish” g‘azallarida shoir hayotining aks etishi.

“Iloho, har kunning Navro‘z bo‘lsin” g‘azalida yangi yil tilaklari va ularning poetik ifodasi.

Ogahiyning “Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina” g‘azallari ishqiy she’rning namunasi sifatida. G‘azallar matni ustida ishlash. Mazkur g‘azallardagi yor timsolida (xususan, unga murojaatda) shohga xos xususiyatlarning aks etishi.

Lirika haqida nazariy ma'lumot

Furqat lirikasi

Furqatning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Fasli navbahor o‘ldi” g‘azalida bahorning rangin, fusunkor manzarasi tasviri. Bahor va umrning go‘zalligi, g‘animatligi. She’rning badiiyati. “Bormasmiz” she’rida ham insoniy qadri baland tutishning madh etilishi, ayni paytda, havoyilik va xudbinlikning tanqid qilinishi.

“Surmadin ko‘zlar qaro” g‘azalida go‘zal yor portreti tasviri. G‘azallardagi poetik san’atlar. “Bir qamar siymoni ko‘rdim, baldai Kashmirda” g‘azalida ishqiy mavzuning g‘urbatdagi shoir taqdiri bilan bog‘lab berilishi. Furqat lirikasidagi g‘urbat ohanglarining shoir hayot yo‘li bilan bevosita bog‘liqligi.

“Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasida tutqunlik fojiasidan kuyunish, erksizlikdan qayg‘urish, hurlikka tashnalik tuyg‘ularining ifodalanishi. Sayd, sayyod, lirik qahramon obrazlari. Matn ustida ishlash.

Furqat ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

G‘azalda badiiy tasvir vositalarining o‘rni haqida nazariya ma'lumot

Adabiyotlar: 1, 9, 10, 13, 15, 16

III BOB. O‘ZBEK ADABIYOTI RUHIY TARBIYA VOSITASI

(28 soat)

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar

Imom Buxoriy hayoti va ijodi va uning “Al-jome’ as-sahih” («Ishonchli to‘plam») hadis to‘plami haqida ma'lumot. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislarining inson ma’naviyati yuksalishida tutgan o‘rni. Axloq-odoba oid hadislarining o‘ziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarining ixcham voqeyiy hikoyalar asosida ifodalanishi. Hadislarining millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni.

Hadislarda mehribonlik, bag‘rikenglik, ma’rifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarining ahamiyati xususida. Hadislar bilan o‘zbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli so‘zlarining mushtarak jihatlari. Matn ustida ishlash. Hadis haqida tushuncha.

Oybek. “Navoiy” romanidan parcha

Oybekning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Oybekning “Navoiy” romanida adib qarashlarining aks etishi. Matn ustida ishlash. Alisher Navoiy obrazi misolida insonparvarlik g‘oyalarining tarannum etilishi.

Romanda tarixiy voqealarning aks etishi. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o'ziga xos tavsifi. Asar matni ustida ishlash. Asarning badiiy ahamiyati.

Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romanidan parcha

Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Ulug'bek xazinasi" romani xususida. Asarda temuriyzoda hukmdor Ulug'bekning allomalik fazilatlari va insoniy xislatlarining yoritilishi. Asarda shoh va olim Ulug'bekning fojiasi haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro munosabati. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o'ziga xos tavsifi. Asar matni ustida ishlash. Tasvirlangan voqealar va ularda ilgari surilgan ma'naviy jihatlar.

Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili yuzasidan nazariy ma'lumot

Abdulla Oripov. "Sohibqiron" dramasi

Abdulla Oripovning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Abdulla Oripov – zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast vakili.

"Sohibqiron" dramasi Amir Temur ruhiy holatining mohirona tasviri. Asar matni ustida ishlash. Sohibqiron va Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o'g'illariga munosabatining ishonarli yoritilishi.

Omon Matjon she'rlari

Omon Matjonning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Shoir she'riyatining asosiy mavzu va yetakchi xususiyatlari.

Shoirning "Vatan mehri", "Haqqush qichqirig'i" turkumidagi she'rlari va "Avvalgilarga o'xshamas", "Eng so'nggi xazina" she'rlari talqini. She'r matni ustida ishlash.

Halima Xudoyberdiyeva. She'riyati

Halima Xudoyberdiyevaning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Shoira she'rlarida insonparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'ularining ifodalanishi. "Dorilomon kunlar keldi..." she'rida erk, ozodlik g'oyalarining kuylanishi. "Begim, sizni..." she'rida samimiy sevgi, vafo, sadoqat tuyg'ularining ishonarli tasvir etilishi. "Shunchaki" she'rida samimiyat va mas'uliyat hislarining aks etishi. She'rlar matni ustida ishlash.

Shavkat Rahmon. "Tong ochar ko'zlarin...", "Turkiylar", "Jangda o'lgan emas biror bahodir", "Baxt so'zi" she'rlari

Shavkat Rahmonning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Shoir she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Shoir she'riyatining asosiy mavzulari. "Tong ochar ko'zlarin..." she'ridagi lirik qahramon tabiati. "Turkiylar" she'rida o'zlikni tanish, Vatan tuyg'usi, millat qayg'usi kabi tushuncha va kechinmalar ifodasi. "Jangda o'lgan emas biror bahodir", "Baxt so'zi" she'rlarida shoirning o'ziga xos qarashlarining ifodalanishi. She'r matni ustida ishlash. Shoir poetik mahorati, she'rlarining badiiy latofati.

Sharof Boshbekov. "Temir xotin" dramasi

Sharof Boshbekovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Dramada aks etgan mustabid davrining ijtimoiy turmush tarzi. Asardagi Qo'chqor va Qumri obrazlari orqali millatimizga xos fazilat va nuqsonlarning ko'rsatilishi. Dramada hayotda uchrab turadigan kulguli voqealarning mahorat bilan tasvirlanishi, real turmushning ochib berilishi. Matn ustida ishlash. Asar tilining o'ziga xosligi.

Adabiyotlar: 2, 4, 8, 10, 14, 17, 18

IV BOB. JAHON ADABIYOTI

(12 soat)

Vilyam Shekspir. “Gamlet” tragediyasi

Vilyam Shekspirning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. “Gamlet” asarida insoniy tuyg‘ular, oila sha’ni bilan bog‘liq muammolarning tig‘iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Gamlet obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlari. Asarda Gamlet, Ofeliya va boshqa qahramonlarning o‘zaro munosabatlari. Matn ustida ishlash. Asarda burch va muhabbat, sadoqat mavzularining tutash tasviri.

Chingiz Aytmatov. “Asrga tatigulik kun” romani

Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni. “Asrga tatigulik kun” asari haqida ma’lumot.

Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo‘li, ruhiy olami orqali kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashagan chin insonning ifodalanishi.

Romanda Edigeyning yaqin do‘sti Kazangap vasiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi zahmatlari ifodasining ta’sirli berilishi. Manqurt haqidagi rivoyatda jamiyatdagi ma’naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi. Matn ustida ishlash. “Asrga tatigulik kun” romanining badiiy xususiyatlari.

O‘ljas Sulaymonov. She’rlar

O‘ljas Sulaymonovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Uning she’rlaridagi yangicha ohanglar talqini. Shoirning “Arg‘umoq”, “Tungu taqqoslar”, “Mambet botir” she’rlari. Shoir she’rlarining badiiy o‘ziga xosligi. Matn ustida ishlash. She’rlarning ma’rifiy-estetik ahamiyati.

Adabiyotlar: 5, 11, 20

Adabiyot fanini mavzuiy rejalashtirish

T/r	BOBLAR NOMI	Ta'lim muassasalari uchun jami soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni o'rganish uchun ajratilgan	Nazorat ishi (xatolar ustida)	Takrorlash	Test	Mustaqil o'qilgan salar muhokamas uchun ajratilgan
	Kirish	1	1				
1	III BOB. Xalq og'zaki ijodi	14	5	6	1	1	1
2	III BOB. O'zbek adabiyoti tarixi	29	20	6	1	1	1
3	III BOB. O'zbek adabiyoti ruhiy tarbiya vositasi	37	28	6	1	1	1
4	III BOB. Jahon adabiyoti	21	12	6	1	1	1
	Jami:	102	66	24	4	4	4

Adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishni mavzuiy rejalashtirish

T/r	BOBLAR NOMI	Ta'lim muassasalari uchun jami soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni o'rganish uchun ajratilgan	Nazorat ishi (xatolar ustida)	Takrorlash	Test	Mustaqil o'qilgan salar muhokamas uchun ajratilgan
	Kirish	1	1				
1	III BOB. Xalq og'zaki ijodi	17	6	6	1	2	2
2	III BOB. O'zbek adabiyoti tarixi	40	28	6	2	2	2
3	III BOB. O'zbek adabiyoti ruhiy tarbiya vositasi	46	35	6	1	2	2
4	III BOB. Jahon adabiyoti	32	20	6	2	2	2
	Yondash dastur	34					
	Jami:	170	90	24	6	8	8

Foydalanilgan va foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar, manbalar

9. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Tanlangan asarlar. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti- T., 1972
10. K.Jo'rayev. "Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganish".– T., O'qituvchi, 1974.
11. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Mukammal asarlar to'plami –T., 1975.
12. O. Yoqubov. "Ulug'bek xazinasini" – T., G'ofur G'ulom, 1978.
13. Vilyam Shekspir Tanlangan asarlar. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti- T., 1981
14. "Alpomish" dostoni., – T., O'qituvchi, 1987.
15. T.Boboyev. "She'r ilmi ta'limi". – T., O'qituvchi, 1996.
16. Safo Matjon. "Maktabda adabiyotdagan mustaqil ishlar". – T., O'qituvchi, 1996.
17. Q.Yo'ldoshev. "Adabiyot o'qitishning ilmiy nazariy asoslari".– T., O'qituvchi, 1996.
18. Q.Yo'ldoshev va b. "Adabiyot o'qitish metodikasi" – T., O'qituvchi, 1999.
19. O'. Sulaymonovning "Aylanay" she'riy to'plami
20. Q.Yo'ldoshev. "Alpomish" talqinlari., – T., "Ma'naviyat", 2002.
21. A.Hojjahmedov. "Navoiy aruzi nafosati" – T., Fan, 2006.
22. A. Oripov. "Ranglar va ohanglar" "O'zb. milliy ensiklopediyasi" 2012.
23. Alisher Navoiyning 10 tomlik "To'la asarlar to'plami". – T., G'afur G'ulom. 2016.
24. B.To'xliyev, G.Ashurova. "Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish" – T., 2017.
25. Imom Buhoriy hayoti. H. Rasulov tarjimasini. Samarqand. 2018
26. "Hadislar to'plami" 4 tomlik. Toshkent. "O'zb. milliy ensiklopediyasi"
27. O'. Sulaymonov "Aylanay" She'rlar to'plami.
28. "Asrga tatigulik kun" roman. Ch.Aytmatov
29. Internet saytlari: www.fgosvo.ru, ru.wikipedia.org , mel.fm (Rossiya); online.zakon.kz, www.kaznu.kz (Qozog'iston); ushbu internet saytlaridan Rossiya

Adabiyot fanidan o'quv dasturini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruh
RO'YXATI

/r	Ism-sharifi	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi	Imzo
1	To'xliyev Boqijon	Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti filologiya fanlari doktori professor	
2	Karimov Bahodir	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori	
3	Usmonova Komila	11-sinf adabiyot darsligi muallifi, Nafaqada	
4	Hamraqulova Xurshida	Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi f.f. n	
5	Ergasheva Shahnoza	Innovatsion rivojlantirish vazirligi davlat ilmiy texnika dasturlarini rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi, f.f. n	
6	Musurmonqulova Oysuluv	Respublika Ta'lim markazi metodisti	
7	Toshmirzayeva Sharofat	XTV tasarrufidagi FFIDUM o'qituvchisi	
8	Xo'jamberdiyeva Nilufar	Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 34- maktab o'qituvchisi	



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI**

ADABIYOT

(o‘zbek tili sinflari uchun)

10-sinflari uchun

**2022–2023-
o‘quv yili uchun**

FILOLOGIYA FANLARI TAVSIFI VA INTEGRATSIYASI

Filologiya fanlari ona tili, adabiyot, o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, qoraqalpoq), rus tili (ta'lim rus va o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so'z san'atidir. Shu sababli ham ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligini va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchilarda so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyatini, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili, adabiyot, o'zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda ta'lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'zni bilan bog'lanishli, o'quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchilarni kreativ fikrlashga, matnni tushunishga, bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy

jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

Ona tili fani faqat grammatik me'yorni o'rgatuvchi fan sifatida emas, balki o'quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to'g'ri

o'qishiga, orfoepik va orfografik me'yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. O'quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'limning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ushbu fan ta'limi mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarda og'zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlarini ta'minlashga qaratilgan. O'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil

rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko'zda tutadi.

Adabiyot fani o'quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o'rgatadi hamda shu orqali o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'qish fani, umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot fani, og'zaki va bog'lanishli nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fani orqali o'quvchilarda to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; o'quvchilarda kitobga, o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali o'quvchilarning tevarak-atrof, borliq haqidagi

bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish; o'quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish; elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchilarning tafakkurini boyitish ko'zda tutiladi. O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslarini bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Filologiya fanlari blokidagi fanlar o'zaro ijtimoiy va aniq fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitiladi. Agar o'quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki kreativ yondashmasa, o'qish savodxonligida qusur borligidan dalolatdir.

Matematika faniga doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalanadi. Gap qurilishini esa, shubhasiz, ona tili fani o'rganadi. Fanga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

Fizika va astronomiya faniga doir masala, formula, matnlarni o'qib tushunish ushbu fan tushuncha va hodisalarini – bu fan ramzlari va amaliyotlarini to'g'ri yozish va o'qish orqali – qanchalik to'g'ri va ongli uqqanligi yoki uqmaganligini ham ko'rsatib turadi. Fanga oid matnlarni o'qish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kimyo faniga oid matnlarni, terminlarni, atamalarni, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Fanga oid matnlarni to'g'ri o'qish va tinglab tushunish orqali o'quvchilar moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarni biladilar. kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganishadi. Kimyoviy moddalardan, maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmalari rivojlanadi.

Biologiya faniga oid matnlarni to'g'ri o'qish, tushunish orqali terminlarni, atamalarni, jonli tabiatning obykti va tizimini bilish, jonli va jonsiz tabiat o'rtaidagi uyg'unlikni his etish, jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Tabiiyot va geografiya faniga oid matnlarni tinglab tushunish, o'qish orqali o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni o'rgatadi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo'llash malakalari shakllanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid matnlarni tushunish, o'qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari rivojlanadi.

Tarix fani orqali adabiy va tarixiy dalillarni bir- biriga qiyoslash, dalillar haqida fikr yuritish va to'g'ri xulosalar chiqarish bilimni puxta o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot va tarix fani o'zaro yaqin turadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ularning tarix fanidan olgan bilimlaridan foydalanish bilan birga, hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar ham o'rganiladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi yorqin tarixiy shaxslar obrazlari ham o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi, jamiyatning moddiy boyligi va ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shish tuyg'usini o'stiradi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda ijtimoiy hayot voqealari hamda adabiyot va san'at asarlarini mustaqil anglash malakasi, izchil dunyoqarash shakllantiriladi.

**I. MAKTAB BITIRUVCHILARIDA FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA
RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR**
(umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar)

NUTQIY KOMPETENSIYALAR

maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun og'zaki muloqotga kirishadi;

maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun yozma matn yaratadi;

turli uslubdagi matnlarni ifodali o'qiydi; mazmunini anglaydi va qayta tushuntirib beradi;

notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o'qiydi;

audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni ko'rib tushunadi, o'z munosabatini og'zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi;

asar va ijodkor shaxsi haqida o'zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me'yorlariga rioya qilgan holda bayon qiladi;

matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo'yadi;

matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettiradi;

matnni mazmuniy qismlarga ajratadi va reja tuzadi;

turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi, asar syujetini hayot bilan taqqoslaydi;

turli janrdagi adabiyotlarni mutolaa qilib, undagi g'oya va obrazlarga og'zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildiradi;

asar mutolaasidan zavqlana olish darajasida tilning ifoda imkoniyatlarini anglay oladi va his-tuyg'ularini bayon qiladi;

ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushunadi, o'z munosabatini bildiradi;

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

o'z fikrini yozma shaklda bayon qilishda adabiy tilning imlo, grammatik va uslubiy me'yorlariga rioya qiladi;

xalq maqollari, hikmatli so'zlar ma'nosini tushungan holda o'z nutqida qo'llaydi, matn tuzishda yordamchi so'zlardan o'rinli foydalanadi;

nasriy asarlardagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlaydi;

o'z yozma nutqida kiritmalardan, tinish belgilaridan o'rinli va to'g'ri foydalanadi, matndagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gap shaklida yozadi;

til imkoniyatlaridan foydalanib sodda gaplarni qo'shma gapga aylantiradi;

o'qilgan asar bo'yicha obrazlarga mantiqiy fikrlab tavsif beradi;

ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, xat, e'lon, axborot, tavsifnoma, tushuntirish xati, jadval shaklida o'z rezyumesi) ni yozadi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat, esse va ijodiy matn (bayon, 2-2,5 sahifa) yozadi;
sodda matnlar mazmunini tushungan holda tarjima qiladi.

FILOLOGIYA FANLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Filologiya fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish fuqarolik burchi, ijtimoiy, siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish, badiiy asar va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

UMUMIY O'RTA TA'LIMDA ADABIYOT FANINI O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasida umumta'lim fanlari o'qitiladigan muassasalarda (keyinchalik – ta'lim muassasalari) Adabiyot saboqlarini tashkil etishning asosiy masalalari, didaktik tamoyillari, maqsad, vazifalari hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda sohaga oid pedagogik ashyolar hamda kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan rasmiy hujjatdir.

Konsepsiya xalq ta'limi tizimida adabiyot o'quv fanini o'qitish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Jumladan:

Adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi, maqsad va vazifalari, adabiy ta'lim asoslari va didaktik tamoyillarini adabiyotshunoslik hamda metodika ilmining so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda belgilash;

ta'lim tizimi rivojlangan chet mamlakatlarning tajribasidan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xalqimiz milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish yo'llarini tayin etish;

adabiyot o'quv fani davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablar darajasida bo'lishini ko'rsatib o'tish;

adabiyot predmeti bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarining real hayot talablariga muvofiq bo'lishi kerakligini qayd etish;

adabiyot o'quv fanining mazmunini sifat jihatidan yangilab, uning o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishini ta'minlash. Shuningdek, o'qitish metodikasini takomillashtirib, ta'lim jarayonining individuallashtirilishi hamda shaxsga yo'naltirilishini ko'zda tutish;

adabiy ta'limda ijodkor yoki u bitgan asarning mavqeyiga qaraganda o'quvchi shaxsida shakllantirilishi mo'ljallangan ma'naviy sifatlar ustuvor bo'lishi kerakligini ko'zda tutish;

adabiyot predmetining boshqa umumta'lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o'quvchilarni hayotning turli holatlariga tayyorlash imkoniyatini oshirish;

adabiyot o'quv fanining mazmuni o'quvchilar o'z hayotida qo'llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish;

adabiyot saboqlarining o'quvchilarda yozma va og'zaki savodxonlik, badiiy did, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilishini ko'zda tutish;

adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali usullarini joriy etish;

o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida sinfdan va maktabdan tashqari adabiy ta'limning zamonaviy usullaridan foydalanishni ko'zda tutish;

adabiyot o'qitish jarayoni samaradorligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish;

o'quvchilarda nutqiy va badiiy tahlil kompetentligini shakllantirish orqali ularda ezgu shaxslik sifatleri hamda badiiy-estetik didni shakllantirish;

adabiyot o'qitishning barcha bosqichlarida o'quvchilarda hayotning har bir hodisasi hamda odamlarning har bir xatti-harakatiga mustaqil va asosli baho bera olish ko'nikmasini shakllantirish;

adabiyot darslarining turli yoshdagi o'quvchilarda yaxshini yomondan, go'zalni xunukdan, haqni nohaqdan ajratish ko'nikmasi qaror topishiga qaratilishini ko'zda tutish.

II. ADABIYOT PREDMETINING TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Adabiyot ta'limi o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda ezgu ma'naviy sifat va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yoshlarni milliy va jahon madaniyatining eng sara asarlari bilan tanishtirish orqali ularda badiiy asar qahramonlaridagi turli ma'naviy-axloqiy sifatlarga faol hamda asosli mantiqiy va hissiy munosabat uyg'otish lozim bo'ladi.

Adabiyot – millatning ma'naviy qiyofasi va ruhiy qudratining ifodasi, ma'rifiy takomil, milliy til imkoniyatlarini namoyon qiladigan va uning boyliklarini saqlab qoladigan hamda boyitadigan vositadir. Badiiy adabiyot estetik va ma'naviy ta'sir orqali o'quvchilarda odamiylik, halollik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantiradi, ularning shaxsiyatiga tarixiy xotira, o'z xalqi va butun insoniyatga daxldorlik tuyg'ularini singdiradi.

Adabiyot o'qitish o'quvchilarda bilish, kommunikativ, go'zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Bu hol umumta'lim o'quvchilarida to'la ma'nodagi shaxslik sifatlari shakllanishiga olib keladi.

III. KONSEPSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi umumta'lim maktablarida adabiy ta'limni sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg'unligida xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko'tarib, samaradorlikka erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlaydigan, adabiyot va hayot hodisalariga ijodiy yondashadigan, badiiy did hamda ezgu ma'naviy sifatlarga ega barkamol shaxslar sifatida shakllanishini ta'minlash yo'llarini belgilashdan iborat. Bunda u pedagogika, psixologiya, metodika hamda adabiyotshunoslik ilmining so'nggi yutuqlariga tayaniladi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish ko'zda tutiladi:

umumiy o'rta ta'limning barcha bosqichlarida adabiyot o'qitishning uzviyligi va uzluksizligiga erishish;

o'quv dasturi, darsliklar, metodik adabiyotlarni ijodiy fikrlaydigan o'quvchini shakllantirish talabiga muvofiq yangilash, o'qitish metodikasi va texnologiyalarni modernizatsiya qilishni ko'zda tutish;

o'z ustida ishlash orqali adabiyot o'qituvchilari faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish;

adabiy ta'limda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan, o'quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishi natijadorlik omili ekanini anglatish;

ta'lim jarayonida pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini qolipga solmaslik, o'quv vaziyati talabidan kelib chiqib, turli didaktik usul va vositalardan foydalanish imkonini berish;

o'quv dasturi, darsliklar hamda qo'llanmalarining variativ bo'lishiga erishish;

adabiyot saboqlari samaradorligini oshirishda elektron axborot vositalaridan muntazam foydalanishni ko'zda tutish;

badiiy asarlarni o'qish va tahlil qilish orqali o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni darslikka kirmagan badiiy asarlarga qiziqirish yo'llarini belgilash.

IV. ADABIY TA'LIMNING ASOSLARI

Adabiy ta'limning asoslari *maqsad*, *vazifa* hamda *mazmun* tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Adabiyot o'qitishning **maqsadi** badiiy asarlar yordamida sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy **vazifasi** o'quvchilarda:

badiiy so'zdan ta'sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan;

o'qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o'qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg'ularini tarbiyalashdan;

yozma va og'zaki savodxonlik, nutqida adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish hamda adabiyot o'quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan;

uzliksiz ta'lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv tamoyilini shakllantirishdan;

ularda turli janrlardagi badiiy asarlarni o'qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko'nikmasini qaror toptirishdan iborat.

Adabiy ta'lim **mazmunini** esa

badiiy matnlar orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy fazilatlar hosil qilishga yetarli vaqt ko'zda tutilgan o'quv rejasini;

pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik ilmlarining so'nggi yutuqlariga tayangan holda tavsiya etilgan;

o'quvchilarning yosh, ruhiy va jins xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda yaratilgan, o'quv materiallarini o'rganish jarayonida ularni ishlash, izlanish, mustaqil fikrlashga undaydigan darsliklar;

o'zbek va jahon adabiyotining o'quvchilarda ezgu ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan badiiy qimmatlari yuksak namunalarini;

badiiy asarlarni estetik o'zlashtirishga yordam beradigan, sinflar bo'yicha oddiydan murakkabga tamoyili asosida taqdim etib boriladigan adabiy-nazariy tushunchalar;

o'quvchilarga darsliklardagi asosiy o'quv materiallariga qo'shimcha bilim va ma'lumot berish maqsadida yaratilgan o'quv qo'llanmalari;

o'quv materiallari mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berishda foydalanish uchun o'qituvchilarga mo'ljallab yozilgan metodik qo'llanmalar tashkil etadi.

V. ADABIYOT O'QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Adabiyot o'qitishda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan samarali metodik yondashuvlar, zamonabop o'quv-uslubiy majmualar, ommalashgan ilg'or tajribalar ulkan ilmiy-metodik boylik sanaladi. Milliy adabiy ta'limda muayyan taraqqiyot bosqichlari

kuzatilsa-da, adabiyot o'qitish metodikasi global ta'lim imkoniyatlari, jahon standartlari bilan muqoyasa qilinganda, taassufki, uning zaif jihatlari oydinlashib qoladi. Mana shu nuqtayi nazardan, mazkur yo'nalishda endilikda hal qilinishi lozim bo'lgan motivatsion, mazmun-mundarijaga aloqador, metodik hamda kadrlar bilan bog'liq yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

Motivatsion xarakterdagi muammolar. Hozirgi davrda ta'lim oluvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishi, kitobxonlik saviyasi sezilarli darajada pasaygan. Bu esa millat intellektual va hissiy qudratining pasayishiga olib keladi. Bu ko'ngilsiz holatga adabiy ta'limdagi bo'shliqlar, muammolarning mavjudligi ham ma'lum darajada sababdir. Yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib etishga hukumat darajasida e'tibor qaratilayotgani bejizga emas. Maqsad – umuman, aholini, xususan, yoshlarni badiiy asar o'qishga qaytarish. Yoshlarning badiiy asar o'qishga qiziqmasliklari sabablari:

ta'lim oluvchilar badiiy asarlarning jozibasini his etish, ulardan zavqlanish, poetik olamini kashf qilish, estetik o'ziga xosligini anglab yetish kompetensiyasiga ega bo'lmay qolmoqdalar;

umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida badiiy matnlarni o'zlashtirishga faqat yodlash, tinglab tushunish va qayta hikoyalashdan iborat jarayon sifatida qaralib, o'rganilgan badiiy asarlar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga kam e'tibor berilayotgani tarbiyalanuvchilarning badiiy asarni his etmasliklariga, binobarin, unga qiziqmasliklariga sabab bo'lyapti;

xalq og'zaki ijodi namunalarining har bir sinfda o'qitilishi ko'zda tutilgan holda o'quvchilarni ko'p asrlar oldin yaratilgan folklor asarlarining badiiy olamiga olib kirishning samarali yo'llari belgilab olinmagani sababli bolalar bu bitiklar jozibasini anglay olmayaptilar;

o'qituvchilarning o'qitilayotgan badiiy matnlarga asosan nasihat vositasi tarzida munosabatda bo'lishi o'quvchilarni badiiy asardan bezdirmoqda;

uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida mumtoz badiiy tafakkur tarzidagi janr belgilari, vazn o'lchovlari va qofiyalanish tartibidagi qat'iy qoliplar hamda asarlardagi ramziylik, majozilikda namoyon bo'ladigan o'ziga xosliklar anglab yetilmaganligi nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham mumtoz asarlarni o'qish, anglash, ta'sirlanish va tahlil qilishda qiyinchilik tug'dirmoqda;

shuningdek, adabiyotda tinimsiz amalga oshirilayotgan ijodiy yangilanishlar ham o'quvchilarning taqdim etilgan badiiy asarlarni idrok qilish, tushunish va tahlil etishlarida muayyan murakkabliklar keltirib chiqarmoqda;

adabiyot dastur va darsliklarini yaratishda pedagogik nuqtayi nazar o'rniga ko'pincha filologik yondashuv bosimlik qilishi o'quvchilarni badiiy adabiyotdan uzoqlashtirmoqda;

o'quv dasturiga kiritilgan bir talay badiiy matnlarning muayyan sinfdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi ham ularning badiiy adabiyotdan begonalashuviga olib kelmoqda.

Mazmun-mundarija bilan bog'liq muammolar. Amaldagi adabiy ta'lim mazmuni o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish emas, balki muayyan adabiy mahsulotlarni taqdim etish tamoyiliga tayanib belgilangani uchun ta'lim oluvchilarda kerakli adabiy kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Ta'lim tizimlarining ko'pchilik bitiruvchilari badiiy asarni o'qish, tushunish, tahlil qilish, uning badiiy-estetik qimmatini

mustaqil baholash ko'nikmalariga ega emas. Nazariy bilimlarni o'zlashtirgan holda ularni adabiy matn tahliliga tatbiq qila olmaydilar.

Bu boradagi muammolar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiy matnlarni tanlash, tizimga solish, taqdim etish va ta'lim tashkilotlariga yetkazish yo'lga qo'yilmagan;

o'rta ta'limda o'qitiladigan "Adabiyot" o'quv fani darsligining mundarijasi bevosita 1-4-sinfidagi o'qish kitobining davomi sifatida tizimli tashkil qilinmagan, o'rganiladigan badiiy asarlarning bola yoshiga muvofiqligi darajasi hamma vaqt ham hisobga olinmagan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadigan topshiriqlar berilmagan;

"Adabiyot" dasturlari metodist bo'lmagan mutaxassislar tomonidan tuzilgani uchun ularda pedagogik yondashuvdan ko'ra filologik yondashuv tarzi ustuvorlik qilmoqda. Bu hol o'quvchilar o'rganishlari uchun asar tanlashda bitiklarning bolalarda muayyan ma'naviy sifatlar shakllantirishga qanchalik xizmat qilishi emas, balki muallif yoki asarning mavqeyidan kelib chiqib, yondashilganida ko'zga tashlanadi. Haligacha pedagogik jihatdan asoslangan, tajribalar bilan sobit bo'lgan "Adabiyot" o'quv dasturi yaratilmadi;

o'quv dasturlariga kiritilgan ayrim materiallarning o'quvchilar yosh xususiyatiga mos emasligi, ba'zi asarlarni tushunish chuqur ixtisoslashgan filologik tayyorgarlikni talab qilishi tez-tez uchrab turibdi;

darsliklarda o'quvchilarni badiiy matnlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish, asar va uning qahramonlariga mustaqil baho berishga yo'naltirish o'rniga matnlarning mazmuni bayon qilinayotgani, tahlil bo'yicha tayyor maqola berilayotgani adabiyot saboqlarining nursiz, zerikarli, o'quvchilarning esa fikriy boqimanda bo'lishiga olib kelmoqda;

amaldagi "Adabiyot" dasturida xalqimizning milliy mentaliteti, etnik xususiyatlari aks etgan, shuningdek, hozirgi zamon bolalarining hayoti va muammolari yoritilgan asarlarni o'rganishga e'tibor qilinmagan;

oliy adabiy ta'limda badiiy asarga hamon ijtimoiy-faktologik tamoyil asosida yondashish yetakchilik qilayotgani bo'lg'usi filolog mutaxassislarning asosiy malaka ko'rsatkichi bo'lmish badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmayotganiga, binobarin, adabiyot saboqlari yetarlicha samarali tashkil etilmayotganiga sabab bo'lmoqda.

Metodik xarakterdagi muammolar. O'quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan "Adabiyot" o'quv predmeti ta'limning turlicha metodik yondashuv va shakllaridan foydalanadi. Ta'lim natijalarining zamon talablariga to'la javob bermayotgani ko'p darajada o'qitish metodikasidagi bo'shliqlarga ham daxldor. Metodik xarakterdagi mavjud muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning nutq faoliyatini yo'lga qo'yishning asosiy vositasi bo'lmish badiiy adabiyot bilan ishlash bo'yicha tarbiyachilar tegishli metodik yo'riq, tavsiya va adabiyotlar bilan ta'minlanmagan, binobarin, bolalar maktabga nutqiy muayyan oqsoqlik bilan kelmoqdalar;

o'quv dasturini yaratishda ta'lim oluvchilarning yosh, jins, jismoniy va ruhiy o'ziga xosligi hamda milliy xususiyatlari ilmiy asosda hisobga olinmagani uchun adabiy ta'limda uzluksiz tadrijiylik ta'minlanmagan;

mavjud pedagogik ashyolarda o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanish ko'zda tutilmagan;

adabiyot o'quv fanini o'qitishda fanlararo integratsiya mexanizmi ishlab chiqilmagan;

adabiyot predmetini o'zlashtirish darajasini to'g'ri baholashning ilmiy mezonlari yaratilmagan;

adabiyot o'quv fanini o'rgatish bo'yicha o'qituvchi uchun metodik qo'llanmalar, ko'rsatmali qurollar, multimedia vositalari hamda boshqa didaktik materiallar mutlaqo yetarli emas;

o'quvchilarning badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqilmagan;

metodika va adabiyotshunoslik tarmoqlaridagi ilmiy yangiliklarni o'qitish amaliyotiga muntazam joriy qilish mexanizmi yaratilmagan.

Kadrlar bilan bog'liq muammolar. Kompetentli adabiyot o'qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi talabga to'la javob bermaydi. Shu sababli bu sohada bir qator muammolar yuzaga kelgan:

oliy filologik ta'limda asosiy e'tibor bo'lajak mutaxassislariga adabiyot tarixi, nazariyasi, jahon adabiyoti singari fanlar bo'yicha bilim berishga qaratiladi. Ularni o'qitish metodikasiga ikkinchi darajali yumush sifatida qaraladi. Holbuki, metodika bo'lmagan joyda fan rivojining davomiyligi ta'minlanmaydi. Yosh pedagoglar badiiy asarlarni o'quvchilarga yetkazish yo'llarini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lishadi;

oliy ta'limdagi nomukammalliklar tufayli ko'pchilik bitiruvchilarda nazariy tayyorgarlik hamda badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyalari shakllanmagan. Bu esa ta'lim tizimida sifatsiz kadrlar sonining oshishiga olib kelmoqda;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarida metodist olim mutaxassislar juda oz, aksariyat markazlarda, umuman, yo'q. Bu hol tinglovchi o'qituvchilar metodik tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

pedagoglarning o'z ustlarida davomli va uzluksiz ishlashga, metodik o'quv va malakalarini oshirishga o'rganmaganlar, masofadan o'qitish tizimi yo'lga qo'yilmagan;

o'qituvchilarning ish sifatini baholash rasmiy tus olgan, ularning tajribalarini chinakamiga o'rganish va yoyish tizimi shakllanmagan, attestatsiya o'tkazishda muallimlarning kasbiy uquvi emas, balki qog'oz tayyorlash mahorati hisobga olinadi;

o'qitish jarayonining ko'p sonli tekshiruvchilari o'qituvchilar qo'llaydigan ta'lim usullarining qanchalik samara berishidan ko'ra qanchalik urf (moda)ga aylanganiga qarab baho beradilar. Bu ta'lim metodlarining mohiyati emas, shakli birlamchi ahamiyatga ega bo'lishiga olib kelmoqda;

o'qituvchilar bilan bevosita kundalik amaliyotda bog'lanib ishlaydigan ko'pchilik viloyat, tuman va shahar metodistlarining ilmiy saviyasi, metodik tushunchalari va tashkilotchiligi talab darajasida emasligi kuzatiladi.

VI. ADABIYOT O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

6.1. Adabiyot o'qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari

Quyidagilar adabiyot o'qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot predmetini o'qitish samaradorligini oshirish, adabiy ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, usul va vositalarining davr bilan uyg'unlikda takomillashib borishiga erishish;

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va badiiy didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur qilish ko'nikmalarini hosil etish;

o'quvchilarga badiiy adabiyotni o'rgatish orqali ularda olam va odam tabiatiga qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi, sog'lom e'tiqod va ilmiy dunyoqarash hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

badiiy asarlar yordamida o'quvchilarda sog'lom e'tiqod, nozik did, ezgulikka muhabbat, halollik, millat va Vatanga sadoqat singari yuksak fazilatlarni qaror toptirish;

badiiy adabiyotni o'qitishning yangi usullarini joriy qilish orqali adabiy ta'lim jozibadorligini oshirish, bunda xalqaro ilg'or pedagogik tajribalardan keng foydalanishdan iborat.

Adabiyot o'qitishni rivojlantirishning strategik maqsadi quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

umumiy o'rta ta'limning barcha bosqichlarida adabiyot o'quv fanini o'qitish tizimini tubdan yangilash;

predmetining ilmiy-metodik ta'minotini tubdan yaxshilash;

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, ularning nutqiy kompetensiyasini o'stirish;

o'quvchilar yozma nutqida savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglik bo'lishiga erishish orqali ularda tayanch adabiy kompetensiyalar shakllantirish;

adabiy ta'limda o'rganiladigan mavzu tabiatidan kelib chiqqan holda o'qituvchilarga dars o'tish metodini erkin tanlash imkonini berish;

adabiy ta'limga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion yondashuvni shakllantirish;

umumiy o'rta ta'limning boshqa fanlari bilan integratsiyasini yo'lga qo'yish;

"Adabiyot" o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari, turli bosqichdagi o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalardan kelib chiqqan holda aniq baholash tizimini ishlab chiqish;

intellektual salohiyatning hayotdagi o'rni haqida haqqoniy tasavvur shakllantirish;

ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va adabiyot o'quv fanini o'qitishning shakllari xilma-xilligiga imkon berish

6.2. Adabiyot fanining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish

Adabiyot fanining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

chet eldagi ilg'or pedagogik tajribalarni milliy o'qitish an'analari bilan uyg'unlashtirgan holda adabiyot o'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;

adabiyot predmeti bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari tizimini yaratish va takomillashtirish;

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida adabiyot predmetiga ajratilgan o'quv yuklamasining miqdori hamda uning sinflar bo'yicha taqsimoti yuzasidan asosli takliflar tayyorlash;

tayanch o'quv rejaga muvofiq adabiyot o'quv fani dasturini sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari aks etgan holda ishlab chiqish;

ta'limning har bir bosqichidagi o'quvchilarning yosh, aqliy va jismoniy imkoniyatlari hisobga olingan holda o'quv dasturlari yaratilishiga erishish. Buning uchun filolog mutaxassislargagina kerak bo'ladigan asarlarni umumta'lim maktablari o'quvchilariga taqdim etish tajribasidan voz kechish;

"Adabiyot" darsliklarining har bir sinf o'quvchilarida muayyan ma'naviy sifatlarni shakllantirish ko'zda tutilgan holda yaratilishini yo'lga qo'yish;

Har bir o'quvchining o'rganilayotgan badiiy matn yuzasidan o'z mustaqil fikri bo'lishiga erishish uchun "Adabiyot" darsliklarida o'rganilgan asar haqida maqola berish tajribasidan voz kechish;

"Adabiyot" darsliklarida badiiy matn yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlar sonini ko'paytirish va ularning o'quvchilar xotirasini kuchaytirishga emas, balki asar jozibasini his etish va matn zamiridagi tagma'nolarni anglashga qaratilishiga erishish;

o'quvchilarning tavsiya qilinayotgan badiiy asarlar ustida ko'proq mustaqil ishlashlariga imkon yaratish uchun 5-8-sinflarda dastur va darsliklarda adiblarning umr yo'lini berish tajribasidan voz kechish;

adabiyot bo'yicha barcha sinflar uchun darslik, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi kabi o'quv-metodik yig'malar ishlab chiqish va muntazam yangilab borish.

Adabiyot fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik yig'malar tayyorlashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayanish;

yig'malarda o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, ruhiy xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish;

o'quv-metodik yig'malarda o'quvchilarda adolat, milliy g'urur va vatanparvarlik hissini shakllantirishga ustuvorlik berilgan bo'lishi;

yig'malarning o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash hamda kreativlik qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilganligi;

o'quv-metodik yig'malarni o'quvchilarning ma'naviy va aqliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tayyorlash.

O'quv-metodik yig'malarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

didaktik talablar:

berilgan o'quv materiallarining o'quvchi tomonidan to'liq o'zlashtiriladigan yo'sinda bo'lishini ta'minlash;

badiiy matnlar axborot berishga emas, balki hayotning mohiyatini anglashga xizmat qilishi;

o'quvchilarga taqdim qilinayotgan materiallarning qiziqarli, tushunarli va hayotiy bo'lishi;

yig'malar o'quvchida ilmiy dunyoqarashni, milliy g'urur, vatansuyarlik va millatlararo totuvlik tuyg'ularini shakllantiradigan materiallardan tarkib topishi;

o'quv-metodik yig'malar ta'limning kundalik hayot va amaliyot bilan bog'liq bo'lishiga, o'quvchilarda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilishi;

metodik vositalar turli ko'rinishdagi illyustratsiya, jadval va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi.

ilmiy-metodik talablar:

o'quv-metodik yig'malar fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida tayyorlangan bo'lishi;

ularda o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi aks etgan bo'lishi;

yig'malarda mavzular adabiy til qoidalariga to'liq rioya etilgan holda sodda, tushunarli va ravon bayon qilinishi;

o'quv-metodik yig'malarda mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

ular milliylikka zid bo'lmagan illyustratsiyalar bilan bezatilishi;

yig'malarda savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quv-metodik yig'malarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, qarashlarini yozma ifodalashga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

ularda bir tushunchaning ikki xil atalishi hamda sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, yozma savodxonlikka oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, badiiy ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

pedagogik-psixologik talablar:

o'quv-metodik yig'malar ilmiy asoslangan ma'lumotlarga tayanib, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va hayotiy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

yig'malardagi mavzularning o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, fakt, tushuncha va qoidalar fanlararo bog'liqlik hisobga olingan holda izohlanishi;

o'quv-metodik yig'malarda o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyati, oldin berilgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

estetik talablar:

o'quv-metodik yig'malar yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bezalishi;

yig'madagi matnlar o'quvchiga ijobiy-hissiy ta'sir o'tkazib, unda o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

o'quv-metodik yig'malarda bo'lim, bob, paragraf, mavzu va matnlarning o'zaro mutanosib turli shakl va ranglar bilan ajratilishi;

yig'malardagi rasm va tasvirlar badiiy talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalangan bo'lishi lozim.

gigiyenik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

6.3. Adabiyot o'quv fanining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash

Adabiyot o'quv fanining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy darslik va metodik qo'llanmalar yaratish, ona tili va adabiyot o'qitishga ixtisoslashgan sinf xonalarini barpo etish, zamonaviy maktab namunasini yaratish;

sinfxonalarni xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv jihozlari bilan ta'minlash;

o'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan adabiy-badiiy to'garaklarning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

6.4. Adabiyot o'qitish jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim zamonaviyligiga erishish

Ushbu yo'nalishda quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi:

raqamli texnologiyalar bilan ta'lim texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash orqali pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borishiga sharoit yaratish;

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

adabiyot o'quv faniga doir elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, darsliklarning multimediali ilovalari kabi o'quv-metodik majmualarni joylashtirish tizimini yaratish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

adabiyot fanini o'qitishda xalqaro standartlarda belgilangan ta'lim muhiti (Teaching environment) ga ham jiddiy e'tibor qaratish va o'qitish xonalarini adabiyot ta'limining xususiyatlaridan kelib chiqib jihozlash. Ta'lim muhiti o'quvchilarga katta rag'bat berishini e'tiborga olish;

masofadan turib foydalaniladigan elektron kutubxona tizimiga adabiyot bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik yig'malarni, elektron ta'lim resurslarini joylashtirib, ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy elektron dasturlardan adabiyot o'quv fanining o'ziga xosligidan kelib chiqib, foydalanishni yo'lga qo'yish;

Adabiy ta'limning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni chuqurlashtirilgan hamda variativ ta'lim dasturlari asosida o'qitish, ularni “Ustoz-shogird” tizimi asosida o'z sohasida yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi bilan uzviyligini ta'minlash.

6.5. Adabiyot fanining umumta'lim fanlari bilan integratsiyasi

adabiyot o'quv fanining umumta'lim fanlari bilan integratsiyasi o'quvchilarning sog'lom va keng dunyoqarashga ega, jadal rivojlanayotgan raqamli asrda erkin yashab,

samarali faoliyat ko'rsata oladigan raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi;

fanlararo integratsiya o'quvchilarda motivatsion va o'z-o'zini baholash (refleksiv) ko'nikmasini shakllantirib, ularning kasbiy kompetentlilik va ilmiy izlanishlar qilish qobiliyatiga ega kadrlar sifatida shakllanishiga yordam beradi;

adabiyotning o'zga fanlar bilan integratsiyasi o'quvchilarni turli ijtimoiy sohalarda o'z yo'nalishini topish, to'g'ri kasb tanlashga yo'naltiradi.

6.6. Adabiyot o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Adabiyot predmetining mazmun va metodlari takomillashtirilayotgani, umumiy ta'lim uchun ushbu o'quv fani bo'yicha ishlab chiqilayotgan me'yoriy hujjatlar hamda adabiy ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalari, masofadan o'qitish usullari joriy etilayotgani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini keskin yuksaltirishni talab qiladi. Bugungi o'zgarishlar adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori, o'z ish faoliyatida ham milliy, ham chet eldagi ilg'or ta'lim tajribalarni uyg'unlashtirgan raqobatbardosh kadr sifatida ko'rinishini taqozo etadi.

Bu hol umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo'ladi:

adabiyot o'qituvchilarini masofadan turib va aralash usulda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

malaka oshirish davri oralig'idagi fandagi muhim ilmiy yangiliklar hamda ilg'or pedagogik tashabbuslar bilan tanishtirish;

yangi yaratilgan o'quv-metodik yig'malar, ilg'or pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyatiga doir ma'lumotlarni yetkazish;

o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishlarini ta'minlash orqali kasb mahoratlarini oshirish;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ilg'or tajribani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilish;

o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlarini ichki ehtiyojga aylantirish;

joylarda o'tkaziladigan ko'rgazmali va ochiq saboqlarda, metodik birlashmalar, pedagogik o'qishlar, kengashlarda o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-metodik seminarlarda faol qatnashishlarini yo'lga qo'yish.

VII. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali adabiyot predmetini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishni rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

konsepsiya umumiy o'rta ta'limning DTSida belgilanadigan talablar uchun asos bo'ladi;

konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga joriy etish o'quvchi-yoshlarning ma'naviy hamda intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

adabiyot predmetini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni me'yorlari aniqlashtiriladi;

ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda adabiyot predmeti imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishiladi;

ta'lim muassasalarida badiiy adabiyotni o'rganish va uni bilish darajasini baholashning zamonaviy tizimi yo'lga qo'yiladi. Jamiyatda badiiy adabiyotning ezgu ma'naviyatli shaxslar shakllantirishning ma'naviy, ma'rifiy omili sifatidagi nufuzi ortadi.

ADABIYOT FANI BO'YICHA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Umumiy o'rta ta'lim so'ngida o'quvchilarda adabiyot faniga oid quyidagi **kompetensiyalar** shakllangan bo'lishi lozim:

ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALAR

AK1: asarning asosiy va ikkilamchi g'oyasini (g'oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o'z hayotiy tajribasiga tayanadi

AK2: asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi;

AK3: asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi;

AK4: muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil topadi hamda ularni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi;

AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi;

AK6: asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san'atdagi talqinlarini) solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi;

AK7: o'qilgan asarlar tahlili (shu jumladan, qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi, bunda turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o'rinli foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

**FANGA OID KOMPETENSIYALARNING
SINFLAR KESIMIDA RIVOJLANTIRILISHI**

AK 1 – Asarning asosiy va ikkilamchi g’oyasini (g’oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o’z hayotiy tajribasiga tayanadi		
5-sinf	AK1-1	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g’oyasiga o’z munosabatini bildiradi.
6-sinf	AK1-2	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi, boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g’oyasiga o’z munosabatini bildiradi.
7-sinf	AK1-3	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; asarning ikkilamchi g’oyalarini aniqlaydi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g’oyalariga o’z munosabatini bildiradi.
8-sinf	AK1-4	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; asarning ikkilamchi g’oyalarini aniqlaydi; ikkilamchi g’oyalar asarning asosiy g’oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib bera oladi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g’oyalariga o’z munosabatini bildiradi.
9-sinf	AK1-5	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; asarning asosiy g’oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; asarning ikkilamchi g’oyalarini aniqlaydi; ikkilamchi g’oyalar asarning asosiy g’oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g’oyalariga o’z munosabatini bildiradi.
10-sinf	AK1-6	asarning asosiy g’oyasini aniqlaydi; asarning asosiy g’oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; asarning ikkilamchi g’oyalarini aniqlaydi; ikkilamchi g’oyalar asarning asosiy g’oyasini ochib berishga qay

		darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g'oyasiga ta'sirini ko'rsatib bera oladi.
11-sinf	AK1-6	asarning asosiy g'oyasini aniqlaydi; asarning asosiy g'oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; asarning ikkilamchi g'oyalarni aniqlaydi; ikkilamchi g'oyalar asarning asosiy g'oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g'oyasiga ta'sirini ko'rsatib beradi.
AK2 – Asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi		
5-sinf	AK2-1	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asardan xulosa chiqaradi.
6-sinf	AK2-2	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi; asardan xulosalar chiqaradi.
7-sinf	AK2-2	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi; asardan xulosalar chiqaradi.
8-sinf	AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi; asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarni asoslab beradi.
9-sinf	AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
10-sinf	AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
11-sinf	AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
AK3 – Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi		
5-sinf	AK3-1	asarning syujetidagi asosiy voqealarni qayta hikoya qiladi.
6-sinf	AK3-2	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi.
7-sinf	AK3-3	asar syujetini qayta hikoya qiladi syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi.
8-sinf	AK3-4	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi;

		voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi.
9-sinf	AK3-5	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
10-sinf	AK3-5	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
11-sinf	AK3-5	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
AK4 – Muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi.		
5-sinf	AK4-1	muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini (o'xshatish) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi.
6-sinf	AK4-2	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, jonlantirish) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik xususiyatlarni topadi; notanish so'zlar ma'nosini lug'atlar yoki boshqa manbalardan aniqlaydi.
7-sinf	AK4-3	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, jonlantirish, metonimiya, kinoya) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik xususiyatlarni topadi va ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi;

		notanish so'zlar ma'nosini lug'atlar yoki boshqa manbalar, shuningdek, kontekstdan aniqlaydi.
8-sinf	AK4-4	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, jonlantirish, metonimiya, kinoya, sinekdoxa) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik va grammatik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi.
9-sinf	AK4-5	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi.
10-sinf	AK4-6	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi.
11-sinf	AK4-6	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi.
AK5 – Asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi.		
5-sinf	AK5-1	asardagi asosiy obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini aytib beradi.
6-sinf	AK5-2	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini aytib beradi; obrazlarga o'z bahosini beradi.
7-sinf	AK5-3	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi; obrazlarga o'z bahosini beradi va hayotiy tajribasiga tayangan holda bahosini asoslaydi.
8-sinf	AK5-4	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
9-sinf	AK5-5	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.

10-sinf	AK5-6	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
11-sinf	AK5-7	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
AK6 – Asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi.		
5-sinf	AK6-1	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi.
6-sinf	AK6-2	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini topadi.
7-sinf	AK6-3	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni, spektakllarni solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini topadi.
8-sinf	AK6-4	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni, spektakllarni solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini topadi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlar, spektakllardagi farqlar asar g’oyasini qay- darajada o’zgartirganini tahlil qiladi.
9-sinf	AK6-5	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni, spektakllar, radiospektakllarni solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini topadi; asar va uning asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlar, spektakllar, radiospektakllardagi farqlar asar g’oyasini qay darajada o’zgartirganini tahlil qiladi.
10-sinf	AK6-6	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi;

		asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimedia talqinlari – audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqa turlaridagi talqinlari – kino, teatr, tasviriy san’at, monumental san’at) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi; asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g‘oyasini qay darajada o‘zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.
11-sinf	AK6-6	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimedia talqinlari – audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqa turlaridagi talqinlari – kino, teatr, tasviriy san’at, monumental san’at) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi; asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g‘oyasini qay darajada o‘zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.

TUSHUNTIRISH XATI

ADABIYOT FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Adabiyot inson ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini tarkib toptirishning eng samarali vositasidir. Turli davrlarda turli ijodkorlar tomonidan yaratilgan **sara badiiy asarlar** "Adabiyot" o'quv predmetining o'rganish obyekti hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishdan **bosh maqsad** sog'lom e'tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o'zga inson tuyg'ularini his qiladigan, o'z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, **mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega** shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Maktab adabiy ta'limida bosh maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarilishi ko'zda tutiladi:

o'quvchilarda badiiy adabiyot olamiga chuqurroq olib kirish va adabiyotga mehr uyg'otish orqali kitobxonni tarbiyalash;

ularni badiiy asar o'qiydigan, adabiy-nazariy tushunchalarga, o'z bilim va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarlarni **tahlil qiladigan va baho beradigan** darajaga keltirish;

badiiy asar va unda aks etgan hayotiy holat hamda adabiy qahramonlar haqidagi fikrlarini ham **og'zaki, ham yozma shaklda to'g'ri ifodalay oladigan** qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Maktab adabiy ta'limining maqsad va vazifalari qandayligi "Adabiyot" o'quv fanining **mazmunini** belgilaydi. Adabiy ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari hamda boshqa turli yordamchi didaktik vositalardan iborat bo'ladi.

Ochun miqyosida shiddat bilan borayotgan globallashuv jarayoni barcha jamiyatlarda ham ta'lim tizimini takomillashtirib, kompetentli kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimi jiddiy islohotlar bosqichiga kirdi. Milliy o'qitish tizimidagi tub yangilanishlar mavjud ta'lim mazmunining ham o'zgarishini talab qilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning eng muhim va nozik yo'nalishi bo'lmish adabiyot o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'quv ashyolarini yangilash hayotiy ehtiyojga aylandi.

Ushbu o'quv dasturi "Adabiyot o'quv fani konsepsiyasi" va "Adabiy ta'lim davlat standarti" singari rasmiy pedagogik hujjatlarga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tayanch o'quv rejasi asosida yaratildi.

"ADABIYOT" DASTURI MAZMUNI VA TUZILISHI

Jamiyat pedagogika ilmi va amaliyoti oldiga umumiy o'rta ta'limni dunyo andazalari darajasiga ko'tarish talabini qo'ymoqda. Ushbu "Adabiyot" dasturi keyingi talablar asosida qayta ishlab chiqildi. Bunda umumiy o'rta maktab adabiy ta'limi 1-4-sinflar darajasida **boshlang'ich**, 5-9-sinflar qamrovida **tayanch** hamda 10-11-sinflardan iborat **o'rta** singari uch bosqichdan iborat ekani ko'zda tutildi.

Umumta'lim o'rta maktablari adabiy ta'limining ikkinchi, ya'ni tayanch bosqichi bo'lmish 5-9-sinflarda adabiy ta'lim **adabiy o'qish** shaklida tashkil etilishi mo'ljallandi. Bunga ko'ra, o'quv dasturlarida o'quvchilarga o'rgatiladigan badiiy matnlar xronologik yoki janriy belgilariga qarab emas, balki umumlashtiruvchi **ruknlar** bo'yicha joylashtirildi. Har bir sinfda to'rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli

mualliflar tomonidan yaratilgan, turli janrlarga xos asarlar tavsiya qilindi. Matnlarni tanlash va o'rinlashtirishda asarlar yordamida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar tizimi ko'zda tutiladi.

Umumta'lim o'rta maktablarining 10-11-sinflarida adabiy ta'lim **tizimli kurs** shaklida tashkil qilinishi ko'zda tutildi, ya'ni badiiy asarlar davrlar bo'yicha, xronologik tartibda joylashtirildi. Bunda har bir davr uchun obzor (o'rganilayotgan davr adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi) darslar ko'zda tutildi. Bu bosqichda ham o'quvchilarda badiiy asarlar tahlili orqali ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish asosiy pedagogik maqsad bo'ladi. Asar tanlashda filologik mezonlardan ko'ra pedagogik mezonlarga ustuvorlik berildi: asarlarning turli bosqichlardagi o'quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari hamda aqliy rivojlanish darajalariga qanchalik mos kelishi va ularda qanday axloqiy fazilatlar shakllantirishi mumkinligi inobatga olindi.

Har bir sinfda adabiy asar va didaktik materiallar ifoda yo'sini, uslubiy yaqinligi, mavzusi, til xususiyatlari, janr rang-barangligi hisobga olingan holda joylashtirilgan. Materiallarni joylashtirishda soddadan murakkabga tomon borish va janriy xilma-xillikni saqlash tamoyiliga, imkoni boricha, amal qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda milliy va jahon adabiyotining ko'lamini haqida umumiy tasavvur paydo qilishga ham e'tibor qaratilgan.

Dasturda adabiyot o'qitishdagi ikki bosqich orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksizlik bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratildi. 5-9-sinflarda xalq og'zaki ijodi, o'zbek, qardosh turkiy va jahon adabiyotining ayrim namunalarini o'rganish hamda o'quvchilarni o'qilgan badiiy asarni tahlil etishga, ularning janr xususiyatlarini aniqlashga, o'rganilayotgan badiiy asar haqidagi fikrlarini ravon va ta'sirchan bayon qilishga o'rgatish diqqat markazida turadi. Ushbu bosqich o'quvchilarda badiiy asar o'qishga barqaror qiziqish uyg'otib, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish va adabiy asarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan darajadagi nazariy bilimlar berishga qaratilgani bilan o'spirinlarda ezgu ma'naviy sifatlari va kreativlik xususiyatlari shakllantirishga xizmat qiladi.

O'rta maktab bosqichida esa asosiy e'tibor o'quvchilarda milliy va jahon adabiyotining yaxlit estetik hodisa ekanini haqida muayyan tasavvur hosil etishga qaratildi. Bu bosqichdagi adabiy materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan. Lekin turli yillarda yaratilgan adabiy mahsulotlarning barchasi emas, balki ham estetik qimmatini, ham o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlari shakllantirishga qaratilgani, ham qabul qilinishi osonroq ekanini bilan ajralib turadigan asarlarga dasturdan joy olgan. Unda ham, quyi bosqichda bo'lgani kabi, turli davrlarda yaratilgan badiiy matnlar yordamida o'quvchilarda ezgu ma'naviy fazilatlar tarkib toptirish bilan birga, adabiyotning taraqqiyot tarixi, adabiy jarayon tamoyillari haqida muayyan tasavvurlarni shakllantirishga e'tibor qaratildi. Shuningdek, bu bosqichda o'quvchilarga adabiyot nazariyasi bo'yicha chuqurroq ma'lumotlar berilishi ko'zda tutildi. Adabiyot nazariyasi bo'yicha o'quvchilar egallagan bilimlar o'rganilayotgan badiiy asarlarni tushunish va tahlil etish uchun yetarli darajada bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Dasturda o'rta maktab adabiy ta'limining har ikki bosqichida ham jahon adabiyotining sara namunalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Bu asarlarni o'rganish milliy adabiyotimiz umumjahon adabiy jarayonining uzviy bir bo'lagi ekanligini anglatib turadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda ezgu ma'naviy xislatlarni shakllantirishda

dunyodagi eng nodir san'at namunalarini jalb etishga harakat qilindi. O'qituvchi jahon va o'zbek adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro yaqinlik, umumiylik, ijodiy aloqaga e'tibor qaratishi va ular taraqqiyotidagi o'xshash qirralarga o'quvchilar diqqatini jalb etishi zarur.

ADABIYOT O'QITISH METODOLOGIYASI

Dasturda **badiiy matn ustida ishlash**, ya'ni o'quv tahlili adabiyot o'qitishdagi eng **asosiy** yumush ekani ko'zda tutildi. Tahlil jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini hisobga olish yo'llari belgilandi. **Matn ustida mustaqil ishlash** o'quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy kompetentlikka o'rgatadi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar **savol va topshiriqlar yordamida** atroflicha tahlil qilinishi lozim. Bu savol va topshiriqlarning **uch bosqichda**: asarni o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyin tashkil qilinishi hamda har bir bosqich oldiga **konkret, o'ziga xos vazifalar** qo'yilishi o'quvchilarning asarni tahlil qilishlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar mohiyatini o'quvchilarning **o'zlari** tushunib olishlariga, asarni o'zlari uchun "kashf qilishlariga" katta e'tibor berilishi kerak. O'quvchini darsda badiiy asar o'qitish bilan cheklanmay, ko'rkam asar o'qishni uning tabiiy-intellektual ehtiyojiga aylantirish lozim.

Adabiyot saboqlarida badiiy tahlilning rang-barang usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan, hozir amalda bo'lganidek, sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil fikrga kelishiga yoki darslikdan, o'qituvchidan olgan ma'lumotlarini qaytarish bilan cheklanishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o'quvchilarning **turlicha estetik-axloqiy ma'no** topishlariga imkon yaratish bolalarning betakror shaxs sifatida shakllanishiga omil bo'ladi.

Tahlilda asosiy e'tibor asar mohiyatini anglash bilan birga, uning **estetik qimmatini** ko'rsatishga, **badiiyligini ta'minlagan omillarni** idrok etishga qaratilishi zarur. Puxta va chuqur o'quv tahliligina o'rganilayotgan asarning o'quvchilar hissiyotiga ta'sir qilishini ta'minlaydi. Hissiyotga ko'rsatilgan ta'sir, albatta, shaxsning ma'naviy sifatiga evriladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu dastur, oldinlari bo'lgani kabi, "Adabiyot" darsliklarida har bir o'rganilgan asar yuzasidan **metodik maqola** ("*asar haqida*" bo'limi) **berish tajribasidan voz kechishni** ko'zda tutadi. Negaki, darslik mualliflarining bu xil maqolalari o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham bir xil fikrlashga, demakki, fikrlamaslikka odatlantiradi. Ayni shu maqsadda ushbu dasturda ham, oldingi yillarda qabul qilingan dasturlardan farqli o'laroq, faqat tavsiya qilingan asarlar ro'yxati keltirildi hamda asarni qanday talqin qilish kerakligini ko'rsatuvchi annotatsiyalardan voz kechildi. Darslik mualliflari o'rganilgan **asar matni tahliliga yo'naltirilgan savol-topshiriqlarga** zo'r berishi kerakligi tavsiya etiladi. Shuningdek, savol-topshiriqlarning faktologik emas, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan, asar tahliliga yordam beradigan **konseptual** xarakterda bo'lishi kerakligi ko'zda tutiladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, bu dasturda 5-9-sinflarda ijodkorlarning hayot va ijod yo'li bo'yicha ma'lumot berishdan tamomila voz kechildi. Chunki o'smir yoshidagi o'quvchilar uchun yozuvchining umrbayoni bilan uning asarlari o'rtasidagi bog'liqlikni unchalik muhim emas. O'quvchilarning yoshi biroz ulg'ayib, hayot tajribasi ortgandagina asar bilan muallif hayoti o'rtasidagi bog'liqlikni payqashi mumkin. Shuning uchun ham 10-sinfga kelib, ya'ni adabiyot o'quv fani ilmiy tizim tusini olgachgina ijodkorlar umryo'li

o'rganilishi ko'zda tutildi. Adiblar umr yo'li ikki maqsadda o'rganiladi. Birinchidan, ijodkor umrbayoni uning sinfda tahlil etiladigan asarlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, yozuvchi shaxsiyatidagi ibratli axloqiy sifatlar misolida o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga erishiladi.

DASTURDA VARIATIVLIK VA O'QITUCHI ERKINLIGI

O'qituvchi savol va topshiriqlar yordamida o'quvchilarning biror badiiy asarni tahlil qilishlariga zamin yaratishda sinfdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari, ruhiy holati, asarning ta'sir darajasini hisobga olgan holda ish ko'rishi zarur. Shuni hisobga olgan holda, dasturda **variativlik** ko'zda tutildi: ayrim o'rinlarda o'rganilishi va tahlil qilinishi tavsiya qilingan asarlardan birini tanlash imkoni berildi. Xususan, lirik asarlarni o'rganishda dasturda nomlari keltirilgan she'rlar yoki g'azallarning barchasini emas, ayrimlarini chuqur tahlilga tortish orqali o'quvchining adib lirikasining o'ziga xosligini tushunishiga erishish tavsiya qilinadi.

Ushbu dasturda o'qituvchilar tashabbuskorligini uyg'otish, ularning erkin fikrlashlariga sharoit yaratish hamda adabiy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan (xususan, o'quvchilar yashab turgan hudud adabiy muhitida yaratilgan asarlardan) foydalanib, ta'limni hayotga yaqinlashtirish maqsadida har bir sinfda o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy materiallarni 10 foizgacha bo'lgan miqdorda mahalliy sharoit talabi, o'qituvchi va o'quvchilarning xohishlariga muvofiq istalgan adabiy siymoning istalgan badiiy yuksak asari bilan **almashtirish** mumkinligi hisobga olindi. Buning uchun dasturda bo'lmasa-da, o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilishi zarur deb hisoblagan asarni yillik taqvim rejasiga kiritishi va uni qaysi asar o'rniga o'tishni mo'ljallaganini ko'rsatishi kerak.

Shu bilan birga, ayni shu maqsad – o'qituvchilarga erkinlik berish, ularning o'zlari dars beradigan sinf qobiliyatlarini hisobga olishlari uchun sharoit yaratish maqsadida har bir asarni o'rganish uchun **soatlar taqsimoti** berilmadi. O'qituvchilar konkret sinfning shart-sharoitlarini hisobga olgan holda soatlarni asar tahliliga (shunchaki asarni o'qib, faktologik ma'lumotlarni eslab qolishga emas) imkon beradigan tarzda taqsimlashlari tavsiya etiladi.

DARSDAN TASHQARI MUTOLAA

Badiiy adabiyotga yaqinlik sinfdagi mashg'ulotlar bilangina tugamasligi kerak. O'qituvchilar, imkon qadar, bir qancha asarlarning sinfdan tashqarida, o'quvchilarning bo'sh vaqtlari hisobiga o'qib chiqilishiga erishishlari va o'qilganlar yuzasidan har bir o'quv choragida kamida bir marta yalpi suhbat o'tkazib turishlari, o'quvchilarning mustaqil o'qigan asarlari bo'yicha fikr-mulohazalarini eshitishga, taqdimotlarini muhokama qilishga vaqt ajratishlari lozim. Sinfdan tashqari o'qishni uyushtirishda o'qituvchi tashabbuskor bo'lmog'i, o'quvchilarning yoshiga munosib yangi chiqqan badiiy yuksak asarlar bilan tanishishni bolalarga tavsiya etishni unutmasligi darkor. Sinfdan tashqari o'qilgan yangi asarlar o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqelik tufayli tug'ilgan hayotiy savollarga javob topishga o'rgatadi. Adabiy ta'limda sinfdan tashqari o'qish orqaligina bolalarda badiiy asar mutolaasiga qiziqish qat'iylashadi, badiiy did shakllanadi, ularning mustahkam e'tiqodli, pokiza axloqli, barkamol ma'naviyatli shaxslar bo'lishiga erishiladi.

Dastur o'rta maktabda adabiyot o'qitishning dars shaklidan tashqari fakultativ mashg'ulotlar, adabiy kechalar, adabiy bahslar, ijodiy uchrashuvlar, to'garak mashg'ulotlari, adabiy quroq (montaj)lar, adabiy ko'rgazmalar, adabiy sayohatlar, kitobxonlar anjumani singari ish turlaridan ham foydalanish mumkinligini ko'zda tutadi.

Xullas, ushbu dasturda mustaqil fikrga ega, badiiy so'zdan ta'sirlanadigan va uni angelaydigan erkin ruhli shaxslarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan metodik tadbirlar yig'masi taqdim etilgan.

X SINF (68 soat)
ADABIYOT FANI BO'YICHA 10-SINF YAKUNIGA
QO'YILADIGAN TALABLAR

AK 1 – Asarning asosiy va ikkilamchi g'oyasini (g'oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o'z hayotiy tajribasiga tayanadi	
AK1-6	asarning asosiy g'oyasini aniqlaydi; asarning asosiy g'oyasi asar davomida qanday rivojlantirilganini (ochib berilganini) tahlil qiladi; asarning ikkilamchi g'oyalarini aniqlaydi; ikkilamchi g'oyalar asarning asosiy g'oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi; asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g'oyasiga ta'sirini ko'rsatib bera oladi.
AK2 – Asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi	
AK2-3	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi va nega shunday tushunganligini tushuntirib beradi.
AK3 – Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi	
AK3-5	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yadi; voqealar ketma-ket bayon qilinmagan asarlarda yozuvchi nega aynan shunday yo'l tutganiga izoh beradi; syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajratadi; syujet nega aynan shunday qurilganligini tahlil qiladi.
AK4 – Muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi	
AK4-6	muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi.
AK5 – Asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi	
AK5-6	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi;

	ularning bir-biriga munosabatini tahlil qiladi.
AK6 – Asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi	
AK6-6	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g’oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va uning turli talqinlarini (masalan, multimedia talqinlari – audiokitob, radiospektakl, san’atning boshqa turlaridagi talqinlari – kino, teatr, tasviriy san’at, monumental san’at) solishtirib, o’xshash va farqli jihatlarini topadi; asar va uning turli talqinlaridagi farqlar asar g’oyasini qay darajada o’zgartirganini yoki kuchaytirganini tahlil qiladi.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

Kirish.

XALQ OG’ZAKI IJODI VA QADIMGI ADABIYOT NAMUNALARI (12 soat)

Xalq og’zaki ijodi haqidagi bilimlarni umumlashtirish.

“Go’ro’g’li” dostonidan parchalar yoki “Alpomish” dostonidan parchalar.

Qadimgi adabiyotning rivojlanish tamoyillari. Qadimgi Sharq adabiyoti. Antik davr (Qadimgi Yunoniston va Rim) adabiyoti.

Homer yoki Sofokl ijodidan namunalar.

O’RTA ASRLAR ADABIYOTI (10 soat)

Mumtoz o’zbek adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlari.

Yusuf Xos Hojib: “Qutadg’u bilig”dan parchalar.

Alisher Navoiy: “Xamsa”chilik haqida tushuncha. “Xamsa” tarkibidagi dostonlardan biri (parchalar).

O’rta asrlar jahon adabiyoti chizgilari.

Migel de Servantes. “Don Kixot” romanidan parchalar.

XVII–XIX ASRLAR ADABIYOTI MANZARALARI (15 soat)

Boborahim Mashrab: G’azallardan namunalar.

Muhammad Rizo Ogahiy: G’azallardan namunalar.

O’zbek mumtoz adabiyotida ayollar. O’zbek shoiralari ijodidan namunalar (Nodira, Anbar Otin yoki Dilshodi Barno ijodidan)

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o’zbek adabiyoti. Furqat yoki Muqimiy yoki Zavqiy ijodidan.

XVII–XIX asrlarda jahon adabiyoti.

Aleksandr Pushkin: “Yevgeniy Onegin” she’riy romani

XX ASR ADABIYOTI MANZARALARI: XX ASRNING BOSHI

(12 soat)

XX asr o'zbek adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.


Fitrat: "Abulfayzxon" dramasi.

XX asr jahon adabiyoti rivojlanish tendensiyalari.

Erix Maria Remark: "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINING
O'QUV DASTURI
ADABIYOT
(11-SINF)



TOSHKENT-2018

ADABIYOT FANIDAN O'QUV DASTURIGA UQTIRISH XATI

Adabiyot ta'limi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va tafakkurini rivojlantirishda hamda so'z san'atiga, Vatanga, milliy an'ana va boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy fanlar tarkibiga kiradi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasidagi adabiyot fani o'quvchilarda insoniy fazilatlarni, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot fanini o'qitishning **maqsadi**: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning adabiy-estetik didini, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'z xatti harakatlariga javob bera oladigan sog'lom e'tiqodli komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Adabiyot fanini o'qitishning asosiy **vazifalari**:

o'quvchilarga badiiy asarlarni o'qitish orqali qahramonlarning tuyg'ularini, egzu fazilatlarini anglatish, ularni badiiy estetik his etishga undash, ma'nan-axloqan komil shaxs sifatida tarbiyalash;

o'quvchilarning til boyliklaridan ravon va savodli foydalanish, adabiy til me'yorlariga rioya etish, og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirish;

badiiy adabiyotga mehr uyg'otish orqali fanning mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganiladi.

Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda o'rganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib o'rganiladi. Bunda asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

- asosiy urg'u yuksak badiiylik talablariga to'la javob beradigan asarlarga qaratiladi;
- ushbu bosqichda mumkin bo'lgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga ko'ra oldingi bosqichlarda ijodkorlarning takrorlanmaydigan asarlari tanlab olinadi;
- ularni o'rganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni o'rganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini ko'paytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning o'ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tug'diradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so'zlarning qo'llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so'z poetikasi va b.)ni teranroq ilg'ash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o'ziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan, nisbatan "qiyinroq" va "murakkabroq" asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko'zda tutilganligi o'quvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar asos qilib olinadi.

Shuningdek, dastur mazmunida o'quvchilarni ezgu fazilatlar asosida tarbiyalash bilan birga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (inglizcha – Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) o'quvchilarni Xalqaro baholash dasturi PISA (inglizcha – Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish xalqaro dasturi) talablari asosida mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan test va topshiriqlarni aks ettirishga ahamiyat qaratildi.

O'quv dasturidagi har bir bo'limning yakunida zaruriy manbalar raqam shaklida kiritildi. Ushbu badiiy adabiyotlar o'quvchilarga sinfdan tashqari va mustaqil o'qishlari uchun tavsiya etiladi.

Nazorat ishi (joriy, yakuniy) uchun soatlar alohida dastur yakunida berilgan jadvalda keltirilgan. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan: matn, insho, qahramonlarga tavsif, savollarga javob yozish topshiriqlaridan foydalanishda DTS talablaridan chiqmagan holda PISA, PIRLS asosida ijodiy yondashish tavsiya etiladi.

O'quv dasturining boshida sinf o'quvchilari o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

O'quv dasturi avvalo, ta'lim muassasasining metodbirlashmasida o'rganilib, o'quvchilar o'zlashtirish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda (belgilangan soatlar doirasida 15 foizga o'zgartirish kiritish mumkin) taqvim mavzuiy reja ishlab chiqiladi va pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Mazkur dastur asosida o'qituvchi taqvim mavzuiy reja tuzishda bobda belgilangan soatdan chiqmagan holda nazariy ma'lumotlar uchun ham alohida 1 soat ajratishi mumkin.

O'quv dasturi bo'yicha o'qituvchilar taqvim mavzuiy reja ishlab chiqishda 1 ta nazorat ishi uchun 1 soatdan 2 soatgacha belgilashi, takrorlash uchun ajratilgan soatlarni o'quvchilarga murakkablik qilgan mavzularga qo'shib berishi mumkin.

Mustaqil o'qish, takrorlash, test(PISA, PIRLS) uchun ajratilgan, dastur boblarida ko'rsatilgan soatlar har bir chorak uchun belgilandi.

Dasturda keltirilgan mavzularga qarab o'quvchilarni tanqidiy, mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

O'quv dasturi bo'yicha o'qituvchilar taqvim mavzuiy reja ishlab chiqishda 1 ta nazorat ishi uchun 1 soatdan 2 soatgacha belgilashi, takrorlash uchun ajratilgan soatlarni o'quvchilarga murakkablik qilgan mavzularga qo'shib berishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining 11-sinflarda adabiyot 1 soat ko'proq ya'ni jami 102 soat o'qitiladi.

11-SINF

Adabiyot fanidan o'quv dasturi

(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat; B1+102 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

qadimgi tuki, mumtoz, mustaqillik adabiyotini farqlaydi;
asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;
asarining til xususiyatlarini tahlil qiladi, munosabat bildiradi;
turli janr va hajmdagi 6-8 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;
adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo'nalishda insho (3, 4-bet) yoza oladi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy asarlardan o'rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi;

o'qilgan asar bo'yicha obrazlarga tavsif beradi, mustaqil insho, taqriz yozadi.

Kirish (1 soat)

Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltirish vositasi

Badiiy adabiyot inson ma'naviyatini yuksaltirish vositachi ekanligi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida, o'z-o'zini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati. Shaxsning shakllanishida kitob mutolaasining o'rni.

Adabiyotlar:1, 4, 5,10,12, 18

1-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI

(4 soat; B1+6)

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostoni

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostoni sujetining o'ziga xosligi. Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati.

Adabiyotlar:3, 4, 5, 6

2-BOB. QADIMGI TURKIY ADABIYOT

(7 soat; B1+9)

Mahmud Qoshg'ariy. “Devonu lug'ot at-turk”asari

Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Devonu lug‘otit-turk” – izohli lug‘at va qomusiy asar sifatida. Unda badiiy durdonalarning o‘ziga xos tarzda ifoda etilgani.

Mehnat va marosim qo‘shiqlari. “Alp Er To‘nga” marsiyasi. “Devon”dagi maqollar xalq donoligining ifodasi sifatida.

Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” asari

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Yusuf Xos Hojibning didaktik dostonchilikning asoschisi ekanligi. Doston matni ustida ishlash. Undagi to‘rt timsol tavsifi. Asarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati.

Adabiyotlar:3, 4, 5,20

3-BOB. O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYO TI

(14 soat; B1+20)

Nosiriddin Rabg‘uziy. “Qisasi Rabg‘uziy” asari

“Qisasi Rabg‘uziy”da avtobiografik ma‘lumotlar. “Qisasi Rabg‘uziy” – o‘zbek nasrining ilk yirik yodgorligi. Asarda nasr va nazm uyg‘unligi. Uning payg‘ambarlar haqidagi qissalardan iborat ekanligi. Asarga xalq og‘zaki ijodining ta’siri. Asarning mavzu qamrovi.

Hikoyatlar matni ustida ishlash. “Uzum hikoyasi”, “Sulaymonning qarinchg‘a bila so‘rashgani”, “Ilon va Qarlug‘och” hikoyatlari tahlili.

Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” dostoni

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi.

“Saddi Iskandariy”dan olingan matn ustida ishlash. Dostonda yoshlik va qarilik haqidagi qarashlarining badiiy tahlili. Dostonning poetik xususiyatlari. Dostonining ma‘rifiy va adabiy ahamiyati.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. Bobur haqida zamondoshlari va undan keyingi buyuk shaxslar e’tirofi.

Bobur devonlari, ulardagi adabiy janrlar. “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim”, “Yaxshilig”, “Sochining savdosi tushti...”, “Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sorg‘ordim”, “Lola” g‘azallari matni ustida ishlash.

Bobur she’riyatida badiiy san’atlar.

Tajnis, talmeh va tanosib she’riy san’atlari haqida nazariy ma‘lumot

Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi

Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Mashrab she’riyatidagi tasavvufiy ohanglar.

“Ishqing o‘tig‘a kuygoni keldim”, “Bu tani xokingni-yu ruhi ravonni na qilay”, “O‘rtar” g‘azallari va “Dastingdan” musaddasi o‘zbek tasavvufiy she’riyatining yorqin namunasi sifatida.

Mashrab ijodining keyingi ijodkorlarga ta’siri.

Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi”) Shoiraning hayoti va ijodi haqqida qisqacha ma‘lumot. Asar matni ustida ishlash. Asarning mazmuni va mohiyati. Unda ijtimoiy muammolarning ifodasi. Asarda o‘zbek ayolining ijtimoiy mavqei haqidagi badiiy estetik kuzatishlar. Anbar Otinning poetik mahorati.

Adabiyotlar:3, 4, 5, 7, 8, 9, 11, 17, 22, 23, 25

4-BOB. YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI

(10 soat; B1+16)

Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi

Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurauf Fitrat – ma’rifatparvar. Uning milliy teatr san’ati rivoji yo’lidagi sa’y-harakatlari. “Abulfayzxon”– ilk o‘zbek realistik dramasi. Dramadagi asosiy qahramonlar talqini. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’rifiy ahamiyati.

Cho‘lpon. “Kecha va kunduz” romani

Shoir hayoti va ijodi. Cho‘lpon – yetuk nosir. Uning “Kecha va kunduz” romanida Zebi ishtirokidagi voqealar tasviri va rivoji. Asardagi Mingboshi, Razzoq so‘fi, Qurvonbibi va boshqa qahramonlar talqini. “Kecha va kunduz” romanining kecha, bugun va erta haqida, inson umrining mazmuni to‘g‘risida fikrlashga undashi. Cho‘lpon ijodining XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

Badiiy asar tahlili (amaliy)

Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni” dostoni

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Uning she’riyatiga xos kechinmalar nozikligi va ifoda go‘zalligi, mumtoz she’riyatga xos ilg‘or an’analarning she’riyat an’analari bilan uyg‘unligi.

Erkin Vohidov – dostonnavis “Ruhlar isyoni” dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini. Asarning shoir ijodiy qiyofasini belgilashdagi o‘rni.

Rauf Parfi she’riyati

Rauf Parfining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, ularda inson ruhiy kechinmalarining kuylanishi.

Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she‘rlari talqini. She‘rlardagi lirik qahramon his-tuyg‘ularining ta’sirchan ifodasi. Tabiat go‘zalliklarini tasvirlashda shoirning o‘ziga xos mahorati.

Adabiyotlar:3, 4, 5,14, 17, 19

5-BOB. MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI

(9 soat; B1+15)

XX asr o‘zbek adabiyotining xalqimizga xos qadimiy adabiy meros, boy madaniyat va badiiy tafakkur tarixida sifat jihatidan o‘ziga xos alohida bosqichni tashkil etishi. XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li – barkamol realistik tasvirning tadrijiy yo‘lidan iborat ekanligi. Bu davrda adabiyotning hayot bilan aloqasi yanada chuqurlashganligi, zamonaviy mavzular va muammolarning adabiyotda keng aks etishi.

Mustaqillik davri she’riyati

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishilgan yutuqlar va kamchiliklar. O‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o‘zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etayotganligi. Istiqlool davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

O‘zbek she’riyatida yangicha ifoda usullari va badiiy tadqiq yo‘llarining kashf etilayotganligi. Mustaqillik davri she’riyatida taniqli ijodkorlar safida ko‘plab yosh iste’dodlarning faol ishtirok etayotganligi. Ular ijodida inson, dunyo va abadiyot muammolarining ko‘plab qirralari butun murakkabligi bilan ifodalanayotganligi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq shoirlarining she‘rlaridan ayrim namunalar(parchalar)

Mustaqillik davrida nasr

XX asr o‘zbek adabiyotining dunyo adabiy jarayoniga uyg‘unligi. Adabiy jarayonni tashkil etuvchi ijodkor – badiiy asar – o‘quvchi(tanqidchi) uzvlaridagi o‘zaro munosabatlarning

faollashuvi. Jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg'or an'alaridan oziqlanish hozirgi adabiy jarayonni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi. Adabiyotimizning milliy o'ziga xosligi saqlangan holda voqelikni badiiy idrok etish va tasvirlashda yangi-yangi shakllarning ifoda etilishi. Adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar emas, balki butun murakkabligi bilan inson obrazi turganligi, unda insonga, vatanga va fidokor xalqqa muhabbat tuyg'ularining ustivor tamoyilga aylanganligi.

Hozirgi o'zbek nasri rivojida taniqli nosirlar bilan bir qatorda yosh adiblarning qo'shayotgan hissalari. Prozada inson ma'naviyati sarhadlarini yangicha qamrov, yangicha estetik sathlarda o'lchashga intilishning vujudga kelishi. Nasrimiz badiiyati sathlarining rang-baranglanishi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O'zbekiston xalq yozuvchilarining asarlaridan ayrim namunalar(parchalar)

Mustaqillik davri dramaturgiyasi

Hozirgi o'zbek dramaturgiyasi jahon va milliy dramaturgiyamizning eng yaxshi an'alarini davom ettirayotganligi. Bu jarayonda qalamkashlarning tutgan o'rni.

Hozirgi o'zbek adabiy jarayonida hayotni, voqelikni nisbiy tugallangan, mafkuraviy baholangan kesimlarda emas, balki davom etayotgan jarayon sifatida aks ettirish tamoyilining yetakchilik qilishi. Hozirgi o'zbek adabiyotiga xos ikkinchi estetik tamoyil adabiyotning bosh predmeti bo'lmish insonni faqat salbiy yoki ijobiy nuqtai nazardan emas, balki borligicha – bir butun va yaxlit holda badiiy tadqiq etishdan iboratligi. Hozirgi adabiyotimizda voqelikni kitobxonga tayyor xulosalar tarzida yetkazib berish asosiy tamoyil emasligi.

Dramatik asarlardan ayrim namunalar(parchalar)

Adabiyotlar:3, 4, 5,26, 27

6-BOB. JAHON ADABIYO TI

(5 soat; B1+9)

A.P.Chexov. “Garov” hikoyasi

A.P.Chexov rus adabiyotining taniqli vakili. Uning hikoyalarida inson tabiatining xilma-xil qirralarining tasvirlanishi. Yozuvchining “Garov” hikoyasi talqini va undagi yetakchi qahramonlar tavsifi. A.P.Chexovning hikoyachilikdagi o'ziga xos mahorati.

Rishod Nuri Guntekin. “Choliqushi” romani

Rishod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi. “Choliqushi” romanida tasvirlangan muhit. Feride obraziga xos bo'lgan insoniy fazilatlar. Adibning tasvirlash mahorati.

Nazoart ishi: 2 soat

Xulosa

XX asr o'zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishgan yutuqlar va nuqsonli jihatlar. Ikki ming yillik o'zbek adabiyotining XX asrda jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o'zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etishi. Asr so'ngida istiqbol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

Adabiyotlar:3, 4, 5,27

Mavzularni o'rganish uchun: 50 soat

Nazarat ishi uchun: 12 soat

Takrorlash uchun 2 soat

Test bilan ishlash uchun : 4 soat

Jami : 68 soat

IDUM:

Mavzularni o'rganish uchun: 76 soat

Nazarat ishi uchun: 16 soat

Takrorlash uchun 4 soat

Test bilan ishlash uchun : 8 soat

Jami : 102 soat

**Adabiyot kursini mavzuviy rejalashtirish
(11-sinf)**

T/r	BO‘LIM VA BOBLAR NOMI	Umumiy o‘rta ta’lim maktablar uchun jami soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni o‘rganish uchun ajratilgan soat	Nazorat ishi (xatolar ustida ishlash)	Takrorlash (har yarim yillikda 1 soat)	Test (har chorakda 1 soat)	Mustaqil o‘qilgan sarlarni muhokama uchun ajratilgan soat
11- SINF							
	Kirish	1	1				
	Xalq og‘zaki ijodi	4	4				
	Qadimgi turkiy adabiyot	11	7	3		1	
	O‘zbek mumtoz adabiyoti	19	14	3	1	1	
	Yangi o‘zbek adabiyoti	13	10	3			
	Mustaqillik davri adabiyoti	13	9	3		1	
	Jahon adabiyoti	7	5		1	1	
	Jami:	68	50	12	2	4	

**Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida Adabiyot kursini mavzuviy
rejalashtirish
(11-sinf)**

T/r	BO‘LIM VA BOBLAR NOMI	Umumiy o‘rta ta’lim maktablar uchun jami soatlar taqsimoti					
		JAMI	Mavzu larni o‘rganish uchun ajratilgan soat	Nazorat ishi (xatolar ustida ishlash)	Takrorlash (har yarim yillikda 1 soat)	Test (har chorakda 1 soat)	Mustaqil o‘qilgan sarlarni muhokama uchun ajratilgan soat
11- SINF							
	Kirish	1	1				

	Xalq og‘zaki ijodi	6	6				
	Qadimgi turkiy adabiyot	15	9	4	1	1	
	O‘zbek mumtoz adabiyoti	27	20	4	1	2	
	Yangi o‘zbek adabiyoti	21	16	4	1		
	Mustaqillik davri adabiyoti	20	15	4		1	
	Jahon adabiyoti	12	9		1	2	
	Jami:	102	76	16	4	6	

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

30. O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni.
31. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” gi Qonuni.
32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 16 -avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 390-sonli qarori.
33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
34. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.
35. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” – T., G‘. G‘ulom, 1967.
36. Rabg‘uziy. “Qisasi Rabg‘uziy”. Yozuvchi, 1990.
37. Atoulllo Husayniy. “Badoe’ us-sanoe” – T., 1990.
38. S.Bobometov. “Aruz vaznidagi she’riy asarlarni ifodali o‘qish” – T., Til va adabiyot ta’limi. 1992.
39. Safo Matjon. “Kitob o‘qishni bilasizmi?” – T., O‘qituvchi, 1993.
40. T.Boboev. “She’r ilmi ta’limi”. – T., O‘qituvchi, 1996.
41. Safo Matjon. “Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar”. – T., O‘qituvchi, 1996.
42. Q.Yo‘ldoshev. “Adabiyot o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari”. – T., O‘qituvchi, 1996.
43. Q.Yo‘ldoshev, O Madiev, L.Abdurahmonov. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” – T., O‘qituvchi, 1999.
44. T.Boboev. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – T., O‘zbekiston, 2002.
45. A.Hojiahmedov. “Navoiy aruzi nafasati” – T., Fan, 2006.
46. Yo.Is’hoqov. “So‘z san’ati so‘zligi”. – T., Zarqalam, 2006.
47. M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...”. – T., Ma’naviyat. 2013.
48. Erkin Vohidov. Saylanma. – T., G‘afur G‘ulom. 2015.
49. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. – T., G‘afur G‘ulom. 2015.
50. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. – T., G‘afur G‘ulom. 2015.
51. Alisher Navoiyning 10 tomlik “To‘la asarlar to‘plami”. – T., G‘afur G‘ulom. 2016.
52. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. – T., G‘afur G‘ulom. 2016.
53. D.Yusupova. “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti”. – T., Tamaddun, 2016.

54. B.To'xliev, G.Ashurova. "Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish" – T., 2017.
55. Iqbol Mirzo. She'rlar – T., 2017.
56. Internet saytlari: www.fgosvo.ru, ru.wikipedia.org , mel.fm (Rossiya); online.zakon.kz, www.kaznu.kz (Qozog'iston); ushbu internet saytlaridan Rossiya,